

O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta`lim vazirligi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Markazi

Namangan muhandislik-pedagogika instituti

Chust qurilish kasb-hunar kolleji

«BINOLARNING MUHANDISLIK JIHOZLARI»

fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun



USLUBIY KO'RSATMALAR

147.04001 «Qurilish, pardozlash ishlari» yo'nalishi bo'yicha
o'qitiladigan kollej talabalari uchun

Namangan-2006 yil

Ushbu uslubiy ko'llanma 147.04001 «Qurilish, pardozlash ishlari» yo'nalishida taxsil olayotgan kasb-hunar kollej talabalari uchun «Binolarning muhandislik jihozлари» fanidan amaliy mashg'ulotlari o'tkazish uchun mo'ljallangan

Muallif(lar): **A.X.Alinazarov** – Namangan muhandislik -pedagogika instituti «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi» kafedrasи mudiri, dotsent, t.f.n.

A.A.Atamov- Namangan muhandislik -pedagogika instituti «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi» kafedrasи katta o'qituvchisi.

M.N.Rajabova-Namangan muhandislik -pedagogika instituti «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi» kafedrasи katta o'qituvchisi

A. Azamov – Chust qurilish KHK direktori.

Taqrizchilar: **A.A.To'xtaboyev**- NamMPI «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi»» kafedrasи dotsenti, t.f.n

M.K.Negmatov–To'raqo'rg'on qurilish KHK direktori t.f.n., dotsent.

Z.Abdug'afforov–Chust qurilish KHK bosh ustasi.

Uslubiy qo'llanma «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi» kafedrasining 2006 yil «___» _____ da bo'lib o'tgan kengashida ma`qullangan va Chust qurilish KHK uslubiy kengashining 2006 yil «___» _____ dagi yig'ilishida ko'rib chiqilib chop etishga hamda foydalanishga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov rahbarligi ostida O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidagi islohatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta`minlash ustuvor yo'naliшlardan biri qilib belgilangan.

Aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta`minlash yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturida "YAqin besh-etti yil ichida mamlakatning barcha aholi punklari sifatlari ichimlik suvi bilan ta`minlanishi zarur. 2005 yilga qadar qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta`minlash 82% ga yetkazish kerak. Buning uchun 1999-2005 yillarda qishloq joylarida 30 ming kilometrga yaqin gaz tarmoqlarini, 18 ming kilometr suv quvuri tarmoqlarini ishga tushirish lozim" -deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni 1999 yil 14 aprel birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi ma`ruzasida ta`kidlab o'tilganidek "XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi strategiyasi, isloxtotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida ustuvor yo'naliшlarning yana biri kadrlar masalasidir. Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni amalga oshirish, hayotga tadbiq etish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz, farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmos'hish" zarur".

YUqorida ko'rsatilgan ustuvor yo'naliшlardagi suv ta`minoti, suvoqava va gaz ta`minoti tarmoqlarini ishga tushirish va ularni hayot talablari asosida me`yorda ishslashini ta`minlash bu soha mutaxassislaridan yuqori malakaga va chuqur bilimga ega bo'lishni taqazo etadi.

Mamlakatimizda suv ta`minoti, suvoqava, issiqlik va gaz ta`minoti quvurlari miqdori va ularning o'tkazish qobiliyatini yildan yilga ortib borishi soxa mutaxassislar oldiga murakkab masalalarni hal qilish extiyojini qo'yadi.

Suv ta`minoti va suvoqava tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish, texnika xavfsizligi va tabiatni muxofaza qilish qoidalariga rioya qilgan xolda istemolchilarni suvgaga bo'lgan extiyojini qondirish, ya`ni yetarli miqdorda suvni yetkazib berish va ishlatilgan suvni tozalash inshootlariga yetib borishini ta`minlash, hamda ruxsat etilgan kontsentratsiyaga qadar tozalanib yaqin suv xavzalariga quyilishini ta`minlash demakdir.

I bob. Binolarni suv bilan ta`minlash tarmoqlari va jihozlari

«Gidravlika» umumtexnik fanlaridan biri hisoblanib, suyuqliklarning tinch holati, harakat va ularni qattiq jismlar bilan o`zaro ta`sir qonuniyatlarini o`rganadi, hamda o`rganilgan qonuniyatlar asosida amaliy muammolarni yechish usullarini ishlab chiqadi. «Gidravlika» fanini chuqur o`rganmay turib, texnik yo`nalishlar bo`yicha malakali mutahassis bo`lib yetishishi mumkin emas.

Quvurlardagi suyuqliklarning bosimli harakatini va harakat davomida sodir bo`ladigan xodisalarni o`rganishga bag`ishlangan.

Gidravlik ishqalanishni tajribada o`rganish natijalari shuni ko`rsatadiki, suyuqlik oqimi paytida yuqotilgan energiya, shu oqim qanday tartibda (laminarmi yoki turbulentmi) harakatlanishiga bog`liq. Laminar harakatda suyuqlik qatlam-qatlam bo`lib, shu suyuqlik zarrachalari bosib o`tgan yollarining izlari bir-biriga nisbatan parallel bo`ladi. Turbulent harakatda esa suyuqlik oqimi qatlam-qatlam bo`lib oqishi buzilib, shu suyuqlik zarrachalari bosib o`tgan yollarining izlari juda murakkab shaklda bo`lib, bir-biriga chalkashib o`ralib ketadigan harakatga aytildi.

Suyuqlikning harakat tartibi Reynolds soni Re bilan aniqlanadi va quyidagi umumiyl formula ko`rinishiga ega:

$$Re = \frac{\rho \cdot R}{\nu}$$

Suyuqlikning quvurlarda bosimli harakati uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$Re = \frac{\rho \cdot d}{\nu}$$

bu yerda: ν - kesimdagи suyuqlikning o`rtacha tezligi;
R-gidravlik radius;
d-quvur diametri;
 ν -suyuqlikning kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti.

Agar Reynolds soni qandaydir kritik sondan katta bo`lsa ($Re > Re_{kritik}$), unda suyuqlik harakati turbulent bo`ladi, Reynolds soni kritik sondan kichik bo`lsa ($Re < Re_{kritik}$), unda harakat laminar bo`ladi.

YUmaloq bosimli quvurlar uchun kritik son Redkr=2320, boshqa shakldagi kesimlar uchun Redkr=580. Bosimsiz oqimlar uchun Redkr=300÷500. Ba`zi suyuqliklarning kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentlari ν jadvalda keltirilgan.

Suyuqlikning harorati $t=15^{\circ}\text{C}$ bo`lganda, qanday harakat tartibi bo`ladi, agarda:
a) bosimli quvurning diametri $d=250\text{mm}$, suyuqlikning sarfi $Q=12\text{l/s}$ bo`lsa; b) ochiq to`rburchak o`zanda harakatlansa va sarfi $Q=0,5 \text{ m/s}$ bo`lsa, chuqurligi $h=0,4 \text{ m}$, kengligi $b=0,7 \text{ m}$ bo`lsa?

Diametri $d=100\text{mm}$ li quvurda kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti $\nu=0,3 \text{ m/s}$ bo`lgan neft oqayapti? Aniqlang: a) harakat tartibini, agarda neftning tezligi $\nu=0,5 \text{ m/s}$ bo`lsa ; b) neft harakati laminardan turbulentga o`tish paytidagi tezlikni.

Diametri $d=50\text{ mm}$ bo'lgan quvurda suv harakatlanayapti. Aniqlang: a) Suvning harakati $Q=110\text{ sm}^3/\text{s}$ va harakat $t=50\text{ }^\circ\text{C}$ da harakat tartibini; v) xarorat $t=200\text{ }^\circ\text{C}$ bo'lganda, harakat tarkibi o'zgarish paytidagi tezlikni.


Harakati $t=100\text{ }^\circ\text{C}$ suv eni $b=25\text{ sm}$ bo'lgan to'g'ri burchakli o'zanda harakat qilyapti. Aniqlang: a) oqimning chuqurligi $h=9\text{ sm}$ bo'lganda, laminar tartib saqlanib qolishi uchun maksimal tezlikni; b) $Q=0.5\text{ l/s}$ bo'lganda, harakat tartibi o'zgarishi uchun oqimning chuqurligini.

Diametri $d=25\text{mm}$ quvurda sarfi $QQ0.052\text{ l/s}$ bo'lgan suv harakat qilyapti. Aniqlang : a) xarorat $50\text{ }^\circ\text{C}$ dan $200\text{ }^\circ\text{C}$ gacha o'zgarsa, harakat tartibi o'zgarish o'zgarmasligini : b) qanday haroratda suv Reynolds kritik soniga teng harakatda bo'ladi.

Doimiy sarf Q va xarorati $t=150\text{ }^\circ\text{C}$ ega suv konussimon pastga kengayib boruvchi quvurda harakat qilyapti. Aniqlang: a) boshlang'ich kesimda harakat tartibi laminar bo'lsa, harakat tartibi yuo'zgarishi mumkinligini; b) sarf $Q=207\text{ sm}^3/\text{s}$ bo'lsa, qanday diametrali kesimda harakat tartibi o'zgaradi?

Quvurda kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti $v=0.3\text{ sm}^2/\text{G's}$ neft harakat qilyapti . Aniqlang: a) sarf $Q=8.14\text{l/G's}$ bo'lgan neft laminar harakatda bo'lishi uchun minimal diametrni d ; b) quvurning diametri $d=150\text{ mm}$ va Reynolds soni $Re=5000$ bo'lganda neftnig sarfini.

Ichki vodprovod barcha iste`molchilarga vodprovoddan foydalanish davri mobaynida zarur miqdordagi va talab qilingan darajada sifatlari suvni uzatib turishni ta`milab turish zarur. Vodprovoddan foydalanishda xavfsiz va qulay bo'lishi zarur.




1-birinchi ko'tarishdagi nasos stantsiyasi; 2- reogent tsexi; 3-alarashtirgich; 6-filtr; 7-toza suv rezervuari; 8- ikkinchi ko'tarishdagi nasos stantsiyasi; 9-tindirgich.

Suv ta`minoti loyixalarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» hamda «Tabiatni Muxofaza qilish haqida» gi qonunlariga, amaldagi QMQ me`yoriy O'zbekiston Respublikasining xujjaligiga amal qilish lozim.

Suv ta`minoti tizimlarini loyixalashda, asosan qancha va qanday tozalikda suvni yetkazib berishga e'tibor beriladi. Joylarni suv bilan ta`minlashda suv manbalarini muxofaza qilish kompleks masalalari yechiladi. Suv ta`minoti

loyixalarini kanalizatsiya loyixalari bilan birga tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Suv ta`minoti sxemalarini tuzishda sanoat korxonalarini suvgaga bo'lgan talabini ko'rib chiqiladi. Suv manbaalarining muxofaza qilish suv sarfini kamaytirish uchun sanoat korxonalarini suv ta`minoti aylanma qilib quriladi.

Suv ta`minoti tizimlarni qulay, sanitariya xolati talabiga javob beradigan, kam chiqim bo'lishi shart. Ichimlik suvi davlat standartidan kam bo'lmasligi kerak.



Qurilayotgan ichimlik suv inshoatlari kelajakda axvolini o'sishini xisobga olib qilinadi.

Suv ta`minoti inshootlari loyixalanayotganda, sanoatda ishlab chiqilayotgan yig'ma detallar, konstruktsiyalar kiritiladi.

Suv ta`minoti tizimi turlari:

Suv ta`minoti tizimi ***ishlatilishiga*** qarab quyidagi turlarga bo'linadi.

- a) *ichimlik-xo'jalik* aholini ichimlik va xo'jalik talabini qondirish uchun;
- b) *ishlab chiqarish*, sanoat korxonalarini suv bilan ta`minlash;
- v) *o't uchirishga*, yong'in chiqqanda sarf qilinadigan;
- g) *birlashtirilgan* - bir vaqtda har xil istemolchilarni ta`minlash uchun;

Suv ta`minoti tizimi ***istemolchilarga*** karab:

- a) *shahar ta`minoti*;
- b) *sanoat korxonalarida ishlatish*;
- v) *kichik aholi yashaydigan punktlar*;
- g) *qishloq xo'jalik ta`minoti*;

Suvni ***uzatishiga*** karab:

- a) *bosimli-nasos qurilmalari yordamida*;
- b) *o'z okimi bilan*;

Birlashtirilgan suv ta`minoti past bosimda bo'ladi. Yuqori bosimli suv ta`minoti asosan o't o'chirish uchun qo'llaniladi.

Vodoprovod tarmoqlarini sinash, qabul qilish, buzuqligini aniqlash va foydalanishni tashqil etish.


Ichki vodoprovod barcha istemolchilarga vodoprovoddan foydalanish davri mobaynida zarur miqdordagi va talab qilingan darajada sifatli ichimlik suvini uzlusiz uzatib turishini ta`minlashi zarur.

1-jadval. Suv olish armaturasining normativ harakteristikalari

Suv olish armaturasi	Bir sekudlik sarf, l/sekund		Armatura oldidagi meneral ish bosimi, MPa
	Umumiy	sovuk, issiq suv	
Umivalnik uchun aralashtirgich	0,12	0,09	0,02(2)
Shuning o'zi, aeratorli	0,08	0,05	0,05(5)
YUvish joylari uchun aralashtirgich	0,12	0,09	0,02(2)
Vanna uchun aralashtirgich	0,25	0,18	0,03(3)
YUvish bakchasingin kalqovichi	0,1	0,1	0,02(2)
Unitazni yuvish jo'mragi	1,4	1,4	0,04(4)
Gruppali qurilmalardan dush aralashtirgichi	0,2	0,14	0,03(3)

Suv olish armaturasi orqali bo'ladigan 1 sekundli sarf 1-jadvalda keltirilgan qiymatlarga to'g'ri kelishi kerak.

1-kishi uchun o'rtacha sutkalik suv sarfi (suv is`temolining nazarda tutilgan normasi). 2-jadvalda keltirilgan kiymatlardan oshmasligi kerak.



Vodoprovoddan foydalanishda xavfsiz va qulay bo'lishi zarur. Shuning uchun vodoprovod tarmog'idagi bosim eng past joylashgan aralashtirgich yoki jo'mrak oldida 0,6 MPa dan oshmasligi kerak.

Bunday bosim tashqi vodoprovodda hosil qilinib, u suv o'lchanadi. Tashqi vodoprovodda bosim kam bo'lganda sistemada nasos qurilma nazarda tutiladi. Bunday xolda bosim nasos ishlab turgan nasosning bosim potrubogiga (nasosdan keyin) o'rnatilgan manometr bilan o'lchanadi.

Barcha quvirlar, suv olish va quvurlar armaturasi, birikkan joylar germetik bo'lishi lozim. Oqimni germetik berkitishni ta`minlovchi bosim armaturasi.

Shuningdek quvurlar ko'zdan kechirish va tuzatish uchun oson kirib-chiqadigan joyda, bo'lisi kerak. Quvurlar, armaturalar va jixozlarning sirtlari karroziyadan tozalanishi lozim. Ichimlik suvining sifatini saqlab kolish uchun xo'jalik-ichimlik vodaprovozi ruxlangan quvurlardan montaj qilinib, ular rezbalar bilan yoki korbanat angdirit gazi yordamida payvandlab ulanadi. Bu po'lat quvurlarning karroziyalanishi kamaytirib, temir tuzlarining suvgaga tushishini kamaytiradi va quvurlarning chidamliligin oshiradi. Vodoprovod ishlayotganda shovqin va vibratssiya paydo bo'lmasligi kerak, chunki ular turar joy binolaridagi shovqin darajasini sanitariya normalarini yo'l qo'ygan darajadagidan oshirib yuboradi.

Vodoprovod buzuqliklariga: suv uzatilishini uzoq muddat to'xtab qolishi, suvning isrof bo'lisi, tizim ishlayotganda shovqin paydo bo'lisi, quvurlarning sirtida bug'larning kondensatsiyalani kiradi. Istemolchilarga uzatilayotgan suvning uzoq muddat to'xtab qolishi yoki suvni bo'lmasligini nasos qurilmasi, truboprovodlar armaturasini buzuqligi, truboprovodlarning ifloslanishi yoki muzlab qolishi natijasida tashqi vodoprovod tarmog'idagi bosim pasayganda yuz beradi.

Tashqi tarmoqdagi bosimni pasayishi binoning yuqori qavatlarida joylashgan istemolchilarga suvni to'xtab-to'xtab uzatishga olib keladi. Agar bosim kafolatlanganga qaraganda past bo'lsa u xolda kirish quvurdagi va kiritish quvurining tashqi tarmoqka ulangan joyida qkuduqning barcha zadvijkalarining ochiq ochiqmasligi tekshirib ko'rildi.

Suv ta'minoti jixozlari va shakli har xil bo'ladi asosan: suv manbaalariga va suv xossalari, istemolchilarni talabiga, joyllarni relefiga, istemolchilarni joyiga bog'liq bo'ladi.

Manbaalardan olinayotgan suvni tozaligi talabga javob bergan takdirdagina suv tozalash inshootlarini qurishga extiyoj qolmaydi. Bunga misol, yer osti suv manbaalaridan foydalanib aholini suv bilan ta`minlashda ko'p xollarda tozalash inshootlari qurilmaydi. Ayrim xolda tog'lik joylarda ikkinchi nasos stantsiyalarini qurilmaydi. Ikkinchi nasos stantsiyalarini ishlashini va aholini suv bilan ta`minlashda boshqaruvni toza suv xovuzlari va bosimli baklar yordamida amalga oshiriladi.

Tuzatilgandan va buzukliklar bartaraf etilgandan keyin ichki vodoprovod foydalanishga topshiriladi. Bunda sistema kuzdan kechirilib, tuzatish ishlarini xajmi, montaj qilish ishlarini sifati, ularni loyixaga tugri kelishini kurib chikiladi. Gidravlik sinov tizimi tuldirligani va stoyaklarning yuqori nuktasiga joylashgan armatura orkali xavo chikarib yuborilgan, siz ish joylari yo'qotilgandan keyin o'tkaziladi. YOpiq xolda o'tkaziladigan quvur uchastkalari ularni qurilish konstruktsiyalariga joylashtirish oldidan sinab quriladi. Sistema sinovdan o'tkazilganidan so'ng armatura ko'zdan kechirilib, barcha buzuqliklar tugatiladi, nasosdan keyin bosim tekshirib ko'rildi va suv olish armaturasi oldidagi bosimni xamda armatura orqali suv sarfini baravarlashtirish uchun tizim rostlanadi.

Sanoat korxonalarida suvni agregatlarinisovutish uchun ishlatiladi, isigan suvni sovitib tozalab qayta ishlatiladi, bunday aylanma suv ta'minoti kam chiqim bo'lgandagina qo'llaniladi. Suv nasoslar yordamida tozalash inshootlariga quyiladi va quvurlar orqali agregatlarni sovitish uchun uzatiladi. Isigan suv quvurlar orqali sovitish inshootlariga (gradirna, sepish xovuzlariga) olib kelinadi. Sovitilgan suv, yangi suv bilan qo'shilib nasoslar yordamida yana markaziy quvurlarga uzatiladi.

Suv ta`minoti tizimlari ikki turga bo`linadi: tashqi suv ta`minoti (suvni suv manbaalaridan olib tozalab, zararsizlantirib magistral quvurlarga uzatishga aytildi); ichki suv ta`minoti tashqi magistral quvurlardan suvni olib binolarga uzatishiga aytildi.

Suv iste`moli me`yorlari deganda vaqt birligida yoki maxsulot birligida sarflanadigan toza suv miqdoriga aytildi. Ichimlik suvi, ishlab chiqarish, ko`kalamzorlashtirish va o`t uchirish uchun ishlataladigan suv iste`moli me`yorlari turlicha belgilanadi.

Suv ta`minotini loyixalashda ta`minlanuvchiga keraklicha suvni yetkazib berish asosiy masala xisoblanadi. Umumiy suv sarfi aholi soniga bog`liq bo`lib, binolarda o`rnatilgan santexnik jixozlarni sifatiga qarab qabul qilinadi.

2-jadval. Xujalik uchun surf kilingan aholi yashash binolaridagi suv sarfi va bir soatdagi tengsizliklar koefitsiyenti.

Binolarni santexnik xolati	Bir kishiga sutkadagi suv ta`minoti		Bir soatdagi
	Urtacha bir yilga 1sutka	Eng katta suv ta`mi-noti 1sutka	Tengsiz-lik koeffitsiyenti
Binolar suv va kanalizatsiya bilan ta`minlangan bo`lib vanna o`rnatilmagan	125-130	140-170	1,5
Shu bino gaz bilan ta`minlangan	130-160	150-180	1,4
Binolar suv va kanalizatsiya bilan ta`minlangan bo`lib ko`mir yoki o`tin bilan isitiladi	150-180	170-200	1,3
Shu bino gaz bilan isitiladi	180-230	200-250	1,25
Binolar suv va kanalizatsiya bilan ta`minlangan bo`lib markazlashtirilgan issiq suv bilan ta`minlangan	175-400	300-420	1,2
Binolar suv va kanalizatsiya bilan ta`minlanmagan, aholi suvni suv kolonkalaridan oladi.	30-50	40-60	2

Suv sarfi o`zgaruvchan bo`lib faslga bog`liq bo`ladi. Masalan yoz kunlari juda ko`p surf qilinadi. Binolardagi suv ta`minoti bir kishiga beriladigan kunlik suv sarfi ikkinchi jadvalda ko`rsatilgan.

Umumiy suv sarfini xisoblashda sanoat korxonalarda ishlovchi ishchilarining xo`jalik uchun surf qilingan suv miqdorini xisobga olinadi.

Suv miqdori har bir ishchi uchun issiq tsexlarda ($20 \text{ kkal } 1 \text{ m}^3/\text{s}$ yuqori bo`lsa) 45 l , sovuq tsexlarda 25 l bir smenada, bundan tashqari dush setkalarida $500 \text{ l}/\text{soat}$ har bir smena oxirida 45 minut ishlaydi.

Ko`kalamzorlashtirish uchun va ko`chalarga suv sepish uchun ikkinchi jadvalda suv normasi ko`rsatilgan. Ayrim xollarda umumiy suv sarfi $30-90 \text{ l}/\text{sut}$ qabul qilinadi. Sanoat korxonalari chiqaradigan maxsulot uchun surf qilinadigan suv me`yori texnologik ko`rsatmadan olinadi. Ayrim xollarda sanoat korxonalar xo`jaligi uchun surf kilinayotgan suv, umumiy suv sarfidan $5-10 \text{ \%}$ olinadi.

3-jadval. Ko'kalamzorlashtirish va ko'chalarga suv sepish me`yori.

Qayergaligi	Kukalamzorlashtirish va suv sepish normasi l/m^2
Mexanizatsiyalashgan suv sepish	1,2-1,5 l/m^2
Mexanizatsiyalashgan suv sepish sanoat korxonalariga	0,3-0,4 l/m^2
Qo'l bilan yo'laklarga sepish	0,4-0,5 l/m^2
Istiroxat bog' yo'laklariga suv sepish	3-4 l/m^2
Gulzorlarga suv qo'yish	4-6 l/m^2
Issiq xonalarga suv qo'yish	15 $l/sutka$
Parniklarga suv qo'yish	6 $l/sutka$

Suv tizimlarini loyixalashda yong'in chiqish xavfi aholi soniga qarab hisobga olinadi. O't o'chirish uchun suv sarfi me`yori 4- jadvalda berilgan.

Kunlik suv sarfini xisoblash.

Suv ta`minotida kunlik suv sarfi asosiy xisoblanadi. Kunlik xo'jalik suv sarfi;

$$Q = \frac{q \cdot N}{1000} M^3 / cym$$

bu yerda q- bir kishi uchun kunlik suv iste`mol me`yori (jadval №2), N-aholi soni.

Kunlik suv sarfi eng yuqori (maksimal) xolat uchun olinishi kerak.

$$Q_{\max .kyh} = K_{\max .kyh} \cdot Q$$

$K_{\max .kyh} = 1,1 - 1,3 K_{\min .kyh} = 0,7 - 0,9$ maksimal va minimal kunlik suv iste`mol tengsizlik koeffitsentlari bulib korxona ishslash tartibi aholi yashash sharoiti va suv iste`mol tartibiga bog'liq.

Shaharni xo'jalik ichimlik suvi bilan ta`minlash quyidagicha:

$$Q_{Hcc}^{cym} = Q_{x.u} + Q_{cym} + Q_{xuc.ol} + Q$$

Xisobga olinmagan $Q_{xis.ol}$ suv sarfi 5-10% xo'jalik ichimlik sarfidan olinadi. $Q_{xis.ol} = 5-10\% ChQ_{x.i}$

4-jadval. Aholi yashash joylarida o't o'chirish uchun suv sarfi.

Aholi soni ming kishi xisobida	Bir vaqtida yong'in chiqish soni	Bitta yong'inga sarf qilinadigan suv	
		Ikki qavatgacha bo'lган binolar	Uch qavatdan yuqori bo'lган binolar
5	1	10	10
10	1	10	15
25	2	10	15
50	2	20	25
100	2	25	35
200	3	-	40
300	3	-	55
400	3	-	70
500	3	-	80

Ichki suv ta`minoti tizimlaridan foydalanish

Ichki suv ta`minoti tizimlari quyidagi elementlardan iborat: binoga vodoprovod kirishi, suv o'lchagichlar, magistral tarmoq, tarqatuvchi quvur tarmoqlari; ko'tarish qurilmalari (ularga ko'tarish nasoslari va idishlari kiradi, bino ichida joylashtiriladi).

Tashqi vodoprovod tarmoqlaridan binoga o'rnatilgan suv o'lchagichlarigacha bo'lgan quvurning uzunligi kirish deb ataladi. Binoga vodoprovod kiritish uchun quvurlarning diametrlari saotlik maksimal suv sarfi xisobidan aniqlanadi. Kirish quvurlari uchun cho'yan vodoprovod quvurlari tanlanadi. Tashqi sirtiga bitum izolyatsiya qoplangan po'lat quvurlar qo'llashga ruxsat berilgan.

Turar-joy binolarida bitta vodoprovod kirishi quriladi. U tashqi vodoprovod tarmog'i tomonga 0,003 qiyalikda o'tkaziladi. Bu esa uni zarur paytlarda suvdan bo'shatishga imkon beradi.

16 qavatdan yuqori bo'lgan turar joy binolarida, zonal vodoprovod bilan ta`minlangan binolarda va 12 tadan ortiq o't o'chirish kranlari bo'lgan binolarda ichki vodoprovod tarmoqlari tashqi xalqasimon tarmoqqa kamida ikkita kirish bilan ulanishi kerak.

Ikki va undan ortiq kirish quvuri o'tkazilganda ular tashqi tarmoqlarning har xil uchastkalariga ulanishi va tashqi tarmoqlarida kirish quvurlaridan biriga zadvijka o'rnatilishi kerak. Kirish quvurlaridan biri ishdan chiqqanda zadvijka yordamida u ikkinchisidan uzib qo'yiladi. Har bir kirish quvuriga binoning ichida teskari klapanlar o'rnatilishi kerak. Kirish quvuri ikkita bo'lganda vodoprovod tarmoqlaridagi bosimni ko'tarish uchun binoga nasoslar o'rnatish zarur bo'lganda kirish quvurlarni nasos oldidan birlashtirish lozim. Agar binoda yerto'la bo'lsa, kirish quvuri poydevor o'yig'idan o'tkaziladi.

Agar yerto'la bo'lmasa, kirish quvuri poydevor ostidagi tuproqdan o'tkaziladi, chunki tashqi tarmoq quvurlari poydevordan chuqurroq o'tkazilgan bo'ladi.

Kirish quvurlari poydevor yoki devor o'yig'idan o'tkazilgan xollarda kirish quvuri atrofida 200 *mm* bo'shliq qo'yilib ketiladi.

Bino cho'kkanda bo'shliq kirish quvurini yemirilishdan saqlaydi. Kirish quvuri atrofidagi bo'shliq joyga, qorilgan smolali tola, shuningdek 2-3 *sm* kalinlikdagi tsement qorishmasi bilan to'ldiriladi.

Kirish quvurini bino poydevoriga perpendikulyar o'tkazish kerak. U iloji boricha qisqa bo'lishi kerak.

Tashqi tarmoqlarning bosimiga qarab suv olish nuqtalariga suv xaydash uchun bino ichida quyidagi ichki vodoprovod tizimlari ko'taruvchi nasoslarsiz tizim (bu xolda suv tashqi vodoprovod tarmog'idagi bosim hisobiga uzatiladi), ko'taruvchi nasosli tizim quriladi.

Ko'taruvchi nasossiz vodoprovod tizimlari shahar tarmog'idagi bosim eng baland va eng uzoq nuqtalarga ham uzlusiz suv yetkizib berilishini ta`minlaydigan darajada va doimiy bo'lgan xollarda qo'llaniladi.

Quvurlar tarmoqlaridan boshqa xech qanday qurilmalari bo'lмаган bunday ichki vodoprovod tizimi eng oddiy hisoblanadi va keng tarqalgan.

Tashqi vodoprovod tarmog'idagi bosim doimiy bo'lмаган yoki vaqtiga vaqt bilan pasayib turadigan xollarda binolarning ichki tarmoqlarida bir yoki bir necha bino uchun ko'tarish nasoslari o'rnatiladi.

Vodoprovod tarmog'iga suv uzatish uchun kerakli bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H = H_1 + \sum h_e + \sum h_m + h_{\text{cvs}, \text{yil}} + h_{\text{uuuu}}$$

H_1 - binoning geometrik balandligi, m

$\sum h_e$ - ichki tarmoqdagi quvurlarda yo'qolgan bosim, m

$\sum h_m$ - maxalliy qarshiliklar yig'indisi, m .

$h_{\text{suv}, \text{ul}}$ - suv o'lchagichdagi yo'qolgan bosim, m

h_{ishchi} – jixoz oldidagi erkin bosim, m

Ko'tarish nasoslari quyidagicha qo'llaniladi: uzlusiz yoki davriy ishlaydigan nasoslari. Suv bosimli yoki gidropnevmatik baklari bilan birga ishlaydigan davriy nasoslari. Faqat o't o'chirishda ishlaydigan o't o'chirish nasoslari qurilmasi.

Vodoprovod tarmog'iga o'rnatiladigan nasoslari har doim suvgaga to'la, ishga tayyor turadi, chunki ularga suv shahar vodoprovod tarmog'i bosimi ostida kiradi.

Nasoslarning ish unimdonligi ularning vaqt birligida uzatgan suyuqligi xajmi bilan ifodalanadi va m^3/soat da o'lchanadi.

Nasos vujudga keltiradigan bosim $m.\text{suv}$ ustunida ifodalanadi. Nasos berayotgan bosimiga va kerak bo'lgan suv sarfiga qarab tanlanadi.

O't o'chirish qurilmalaridan foydalanishni tashqil qilish.

Ichki o't o'chirish vodoprovodlari o't o'chirish kranlari bilan ta'minlangan oddiy, avtomatik xillarga bo'linadi. Oddiy o't o'chirish vodoprovodlari bino ichida yong'inni o'chirish uchun mo'ljallanadi. Ular umumiy xo'jalik vodoprovodidan ta'minlanadi. O't o'chirish vodoprovodlarida tarqatuvchi magistral tarmoqlarida o't o'chirish kranlari bilan jixozlangan maxsus stoyaklar ulanadi.

Quyidagi binolarga o't o'chirish vodoprovodlarini qurish shart: 12 qavatli va undan baland turar joy binolarida, 4 qavat va ulardan baland; maktab-internatlar, mexmonxonalar, pansionatlar; 6 qavatli va undan baland sanoat korxonalarining qo'shimcha binolari va ma'muriy binolarida: har binosining hajmi $5000 m^3$ va undan katta bo'lgan kasalxonalar, bolalar muassasalari, magazinlar, vokzallar, umumiy ovqatlanish korxonalarini va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini binolarida, har bir binoning xajmi $7500 m^3$ va undan katta sanatoriyalar, dam olish uylari, ilmiy-tadqiqot institutlari, muzeylar, kutubxonalar, pansionatlarda 200 o'rinali va undan katta tomosha zallari bo'lgan teatrlar, kinoteatrlar, klublar, kontsert zallarida.

O't o'chirish stoyaklari va kranlari isitiladigan zina kataklariga, koridorlarga, ayrim xonalarga kirish joylariga o'rnatiladi.

O't o'chirish kranlarini binoda shunday joylashtirish kerakki, kranlar soni eng kam va quvuri eng qisqa bo'lgan xolda binoning istalgan qismida o't o'chirish mumkin bo'lsin. Ichki o't o'chirish kranlari 50 va 65 mm diametrli ventel turidagi kranlardir. Ular maxsus shkafchalarda poldan 1350 mm baland o'rnatiladi. O't o'chirish kranlarida tez tutashuvchi yarim gaykalar yordamida brandepoytli shlanglar ulanadi.

Suv olish armaturalarini texnik ishlatalish

Vazifasiga qarab ichki vodoprovod tarmoqlarida suv olish armaturalari ishlataladi. Suv berkitish kranlari quyidagi joylarga qo'yiladi:

- xalqasimon o't o'chirish vodoprovod tarmog'idan bir qavatda ko'pi bilan 5 ta o't o'chirish kranlarini uzish va balandligi 50 m dan yuqori binolardi ko'pi bilan bitta stoyakni uzish uchun;

- ishlab chiqarish vodoprovod tarmog'iga agregatlariga ikki tomonlama suv berish uchun;

- o't o'chirish kranlari beshta va undan ortiq bo'lган o't o'chirish stoyalarining tagiga;

- uch va undan ko'p qavatli binolarda xo'jalik ichimlik yoki ishlab chiqarish tarmog'inining stoyaklari tagiga;

- besh va undan ko'p nuqtalarni ta`minlaydigan tarmoqlarda;

- har bir kvartira tarmoqlarida;

- yuvish bakchalari, yuvish kranlari, suv isitish kolonkalarida boradigan quvurlarga, dush va umivalniklarga boradigan quvurlarga;

- tashqi sug'orish kranlari oldiga;

- maxsus asboblar, apparatlar va agregatlar oldiga;


- magistral tarmoqlardan ketadigan barcha tarmoqlarga.

Bundan tashqari, ichki vodoprovod tarmoqlarida binoning 60-70 m perimetriga bitta kran xisobida sug'orish kranlari o'rnatish ko'zda tutiladi. Suv sarfini xisobga olish uchun parrakli va trubinali suv o'lchagichlar o'rnatiladi. Suv kam sarf bo'ladigan xollarda va kirish quvurining diametri 50 mm gacha bo'lganda parrakli tezkor suv o'lchagichlar ishlataladi. Katta suv sarfini xisobga olish uchun o'tish diametri 50-200 mm bo'lган trubinali suv o'lchagichlar ishlataladi.


II bob. Binolarni iflos suvlarini oqqizuvchi quvurlarni harakatga keltiruvchi tarmoqlari va jixozlarining asoslari

Ichki uy kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish

Ichki uy kanalizatsiya tarmogi sanitariya jixozlaridan chiqadigan oqava suvlarni tashqi tarmoqqa oqizish uchun xizmat qiladi. U tarmoq quvurlar, stoyaklar va chiqarish quvurlaridan iborat.



Ichki kanalizatsiyaning joriy ta`miri shikastlangan sanitariya jixozlarini tuzatish yoki almashtirish, yuvish bakchalaridan suv sizishini bartaraf etish, kanalizatsiya quvurlaridagi cho'kmalarini yuvib tashlash, quvurlardan suv sizishi va tizim ishlayotganda paydo bo'lgan shovqinni bartaraf etish, quvurlar hamda yuvish bakchalari sirtidagi kondensatorlarni bartaraf etish, quvurlarni muzlab qolishi mumkin bo'lgan joylarini sovuq o'tkazmaydigan qilishni o'z ichiga oladi.



1-Binolarning sanitar – texni jixozlari

2-gidrozatvorlar


3-stoyaklar (tik quvurlar)

— shaxsh

Binodagi stoyaklarning qabul qilgichlar xovli kanalizatsiya tarmog'idan past, masalan, chuqur yerto'lada bo'lgan xollarda maxalliy nasos qurilmalari binodan oqava suvlarni tashqi kanalizatsiya tarmog'iga xaydash uchun qo'llaniladi.

Oqava suvlarda ko'p miqdorda moy, benzin, kislotalar, shuningdek, yig'ib ishlatish mumkin bo'lgan moddalar, masalan: yog', benzin bo'lgan xollarda oqava suvlarga ishlov beriladigan maxalliy qurilmalardan keng foydalaniladi.


Ichki uy kanalizatsiya tarmogida bir tomoni kengaytirilgan cho'yan kanalizatsiya quvurlari va shakldor qismlardan, shuningdek, asbest-tsement va polietilen quvurlar ishlataladi.



Yakka umivalniklar va vannalar guruhidan keladigan tarmoq quvurlari diametri 50 mm li, unitazlardan o'tadigan quvurlar esa 100mm li quvurlardan yig'iladi. Tarmoq quvurlari pol ustidan, oraliq yopmadan yoki shift ostidan o'tkaziladi. Ularni qayerdan o'tkazish kerakligi sanitariya jixozlarining turiga, o'rniga va zarur nishablikni saqlash mumkinligiga qarab tanlanadi.

Qavatlararo oraliq yopmalardan o'tkaziladigan tarmoq quvurlarining uzunligi 10 m dan oshmasligi kerak. Osma yoki pol ustidan ochiq o'tkaziladigan quvurlarning zarur nishabligini saqlash va tozalash imkonini hisobga olish sharti bilan quvurlarni uzunroq o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Osma tarmoqlarni shift ostidan o'tkazish yaramaydi.

Sinov o'tkazishdan oldin quvurlarda zarari yo'qligi tekshirib ko'rildi. Sinash vaqtida reviziyaga stoyaklarni berkitib turuvchi muvaqqat tiqinlar qo'yiladi. Sinab ko'rileyotgan bosim 0,08 bosim MPa oshmasligi zarur.



Stoyaklar boshidan oxirigicha bir xil diametrli bo'lishi lozim. Kanalizatsiya stoyagi so'rish qismining diametri shu stoyak diametriga teng bo'lishi kerak. Stoyaklarning so'rish kismi tomdan 0,5 m yuqorida joylashadi. Stoyaklarga reviziya

(tozalagich) o'rnatiladi. Reviziylar birinchi va oxirgi etajga, ko'p etajli binolarda har uchinchi etajga poldan 1,1 m balandlikda o'rnatiladi.

Chiqarish uzellari cho'yan quvurlar va shakldor kismlardan iborat bo'ladi. Chiqarish uzellari diametri shularga yo'nalgan eng katta stoyak diametridan kichik bo'lmasligi lozim.

Chiqarish uzelining tashqi devordan quduqqacha bo'lgan uzunligi kamida 3 m, ko'pi bilan 8 m bo'ladi.

Chiqarish uzelini bino poydevori yoki yerto'la devoridan o'tkazish uchun quvur atrofida 200 mm bo'shliq hosil qilinadi.

Ichimlik va oqava suvlarni tozalash inshoatlarini ishlash sharoitlari va ular ishini kimyoviy texnologik nazorat qilishni tashqillash

Oqava suvlari maxsus tozalash inshoatlarida tozalanadi.

Tozalash va unga ishlov berishning metodlari:

Tindirish- loyqani cho'ktirib, tiniq suv olish;

Zararsizlantirish (dezinfektsiya)-kasallik tarqatuvchi bakteriyalarni yo'qotish;

YUmshatish- kaltsiy, magniy va boshqa tuzlarini kamaytirish.

Suvni tindirish, ya`ni unda qalkib yuradigan moddalarni yo'qotish uchun suv suziladi, tindiriladi va filtrlanadi. Suvni suzish uchun u oldin yirik panjaradan, keyin suv qabul qilish quduqlariga o'rnatilgan turdan o'tkaziladi. Suzish natijasida suv yirik mexanikaviy aralashmalaridan tozalanadi.

Suvni tindirish uchun tindirgichlardan 1-2 mm G'sek tezlikda o'tkaziladi. Suv tindirgichda bo'lish mobaynida mayda zarralar tindirgich tubiga cho'kadi. Suvni to'la va tez tindirish uchun suvga turli kimyoviy moddalar (gil tuproq, achchiq tosh) ko'shiladi. Ular suvga mayda parchalarga ajraladi va cho'ktirilib, suvda qalqib yurgan zarralarni o'ziga ilashtirib tindirgich tubiga cho'ktiradi.

Tindirgichda tindirilgan suvda ozgina mayda qalqigan aralashmalar qoladi, shuning uchun ichimlik suvi qo'shimcha filtrlanadi, ya`ni filtrdagi qum qatlami orqali o'tkaziladi; suvda qolgan aralashmalar qum sirtida va qisman qum qatlami ichida qoladi. yer usti va yer osti suv manbalari suvni iste'mol qiladigan barcha xo'jalik ichimlik vodoprovodlarda amalda suv zararsizlantirilishi, ya`ni kasallik tarqatuvchi bakteriyalar yo'qotilishi zarur.

Kanalizatsiya tarmog'iga tushadigan oqava suvlari tarkibida mineral cho'kmalar (qum, loy, shlak zarralari, suvda erigan tuzlar, kislotalar, ishqorlar) chirigan organik moddalar (xayvon va o'simlik qoldiqlari); kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, sanoatdan chiqadigan suvlarda esa zararli kimyoviy moddalar bo'lishi mumkin. Shuning uchun oqava suvlarni suv xavzasiga tushirishdan oldin tozalanadi. Oqava suvlarni tozalashning mexanikaviy, fizik-kimyoviy va biologik usullari bor.

Mexanik, biologik usullarida suv tozalash inshoatlari, zararsizlantiruvchi qurilmalar, cho'kmaga ishlov beruvchi inshoatlardan foydalanish.

Mexanikaviy tozalash oqava suvlardan erimagan, qisman erimagan mineral chiqindilarni, shuningdek oqava suvlarda suzib yuradigan iflosliklarni tozalashdan iborat. Oqava suvlari panjaralar, galvirlar, qum tutgichlar va tindirgichlarda tozalanadi. Oqava suvlari harakati yo'liga va ko'pincha nasos stantsiyalariga o'rnatiladigan panjaralar va galvirlarda yirik suzib yuruvchi iflosliklar (kog'oz, latta)

tutilib qoladi. Suv uzi oqib bora olmaydigan tozalash inshootlariga oqava suvlar nasos stantsiyalari yordamida beriladi.

Keyin oqava suv kichik xovuzlar, qum tutgichlarga qo'yuladi. U yerda harakati sekinlashib, xovuz tubiga mineral moddalar asosan, qum cho'kadi. Undan maydar oq organik zarralar esa bunday tezlikda cho'kib ulgirmaydi. So'ngra oqava suvlar yirikroq xovuzlar, tindirgichlarga boradi. U yerda erimagan mayda zarralar ajralib, xovuz tubiga cho'kadi. Ular xovuz tubidan vaqt-i vaqt bilan tozalanib turiladi. Tindirgichlarda suv juda sekin harakatlanadi. Suv biologik tozalanadigan jixozlardan oldin o'rnatiladigan birlamchi tindirgichlarda suvning eng katta oqish tezligi 10 mmG'sek. Tindirgichlarda tutib qolinadigan chiqindi va balchiq chiritgichlarda yana qayta ishlanadi, so'ngra balchiq maydonlarda quritiladi yoki mexanikaviy qurilmalar yordamida suvsizlantiriladi.

Mexanik-kimyoviy tozalashda oqava suvdan suvgaga erimagan iflosliklar ketkaziladi. Bu usulda oqava suvgaga erimagan aralashmalarning qalqib chiqishini tezlashtiradigan har xil ximiya viy birikmalar qo'shiladi. Mexanik-kimyoviy tozalashning boshqa usuli xam bor. Oqava suv orqali doimiy elektr toki o'tkaziladi. Bu suyuqlikdan erimagan iflosliklarning ajralishiga yordam beradi.

Mexanik-kimyoviy tozalashda oqava suvlar faqat tinadi, lekin bakteriyalardan to'liq zararsizlantirilmaydi. Ba`zan oqava suvlarni mexanik-kimyoviy tozalashda faqat bakteriyalarning uchdan bir qismi nobud bo'lsa, bu yetarli emas, bunda ancha mukammal biologik tozalash usuli qo'llaniladi.

Biologik tozalashda tuproqdagi mikroorganizmlarning faoliyatidan foydalaniadi. Bu mikroorganizmlar oqiziq suvdagi organik moddalarining oksidlanishi (chirishini) ta'minlaydi. Natijada ular minerallanadi va bakteriyalar tabiiy tarzda zararsizlantiriladi. Biologik tozalashda oqava suv organik moddalar va bakteriyalardan deyarli butunlay tozalanadi, mikroorganizmlarning yashashi uchun zarur bo'lgan kislorod xavodan kiradi.

Biologik tozalashda tingan oqava suvlar tuproq qatlami orqali filtrlar va bakteriyalarni zararsizlantirish uchun navbatdagi qurilmalarga yo'naltiriladi. Biologik tozalash tizimlariga sug'orish maydoni va filtrlash maydoni oqava suvlar yo'naltiriladigan maxsus yer uchastkalari kiradi. Sug'orish maydonida oqava suvlar tuproq qatlami orqali o'tadi, undagi moddalar tuproq sirtiga o'tiradi tozalangan suv ochiq suv xavzasiga tushadi. yer sirtida qolgan moddalar sug'orish maydonlarida o'stiriladigan qishloq xo'jalik ekinlari uchun o'g'it bo'ladi.

Panjaralar, kultutgichlar, tirnagichlar, filtrlar, aerotenklar ishini tashkil etish va joriy unumdoorligini xisoblash

Filtlash maydoni oqava suvlarni faqat sanitariya jixatidan tozalash uchun mo'ljallangan. Oqava suvlarni tazalashni sun`iy biologik usuli xam bor. Bunda biologik filtlar va aerotenklar qo'llaniladi. Biofiltrlar shlak, shag'al yoki koks qatlamlari bor. Unda sug'orish maydonini va filtrlash maydonidan ko'ra jadalloq tarzda oqava suvining biologik tazalanish jarayoni o'tadi. Aerotenklar tindirilgan oqava suvgaga aktiv balchiq ko'p mikroorganizmlar-mineralizatorlar bo'lgan balchiq aralashtirilgan suv oqadigan idishlar xisoblanadi.

Mineralizatorlar xavo kislorodi ishtirokida tozalanadigan oqava suv tarkibidagi organik moddalarni oksidlaydi va minerallaydi. Suvni biologik tozalash usuli eng mukammal bo'lgani uchun xozirgi vaqtda keng qo'llanilmoqda.

Bakteriyalardan butunlay tozalash uchun biologik tozalashdan o'tgan oqava suv suyuq xlor bilan kimyoviy tozalanadi.

Oqava suvlarni zararsizlantirishdagi xlorning xisobiy dozasi $1\text{G}'\text{m}^3$ to'liq sun`iy stantsiyalarida 151 m^3

Oqava suv gazlar aralashtirgichlarda qo'shiladi. Kontakt idishda yoki tarmoq novlari va quvurlarida oqava suvning xlor bilan ta`sirlanushi vaqtida 30 minut bo'lishi kerak. Tindirilgan va zararsizlantirilgan oqava suvlar suv xavzalariga quyiladi. Oqava suvni xavzalariga to'kadigan qurilma chiqarish qurilmasi deyiladi. Oqava suvlarni suv xavzalariga to'kishda ular suv xavzasidagi suvga yaxshiroq aralashishi lozim. Buning uchun ularni suv xavzasining o'rtasiga to'kish kerak. Suv xavzasining tubi va chiqarish qurilmasini o'pirilish va balchiqlanishdan saqlash kerak. Shu maqsadda suv chiqariladigan quvurlar suv xavzasi tubidan $0,6\text{-}1\text{ m}$ yuqori o'tkaziladi.

3-bob. Markaziy isitish tizimlarining yig'ushi

3.1. Bug' bilan isitish sistemalarini yig'ish.

Bug' bilan isitish sistemalarining trubalari, xuddi suv bilan isitish sistemalarining trubalari kabi, TSZMda qilingan zagotovkalardan yig'iladi.

Bug' truboprovodining flanebsli birikmalarida qaynoq suvga chayqalgan $3\text{-}5\text{ mm}$ qalinlikdagi paronit qistirmalar ishlatish tavsiya qilinadi.

Radiator sektsiyalari 1 mm qalinlikdagi paronit qistirmalar qo'yib yig'iladi. Agar zichlagich sifatida tabiiy alifmoyga qorilgan grafit shimdirilgan zig'ir tolali asbestos shnur ishlatiladigan bo'lsa, radiatorlarni qayta gruppashga ruxsat etiladi. Suvalmagan yog'och devorlarga o'rnatiladigan radiatorlar devordan kamida 100 mm nari turishi lozim.

Past bosimli bug' bilan isitish stoyaklari va magistrallaridan kondensatni chiqarib yuborish uchun mo'njallangan sifonlarning balandligi loyiada ko'zda tutilgandan baland bo'lishi lozim. Suv va loyqa chiqib ketishi uchun sifonlarning pastki nuqtalariga tiqin qo'yiladi.

Past bosimli qozonni yig'ishda har bir qozon uchun alohida-alohida chiqarish moslamasi o'rnatilishi kerak. Qozonlardan himoya chiqarish moslamalariga boradigan trubalarga berkitish armaturasi o'rnatilmaydi.

Har bir past bosimli bug' qozoni $0,1\text{ kgk}/\text{sm}^2$ bo'linmali manometr va suv o'lchash oynasi bilan ta`minlanishi lozim. Manometr qozonning bug' bo'shlig'iga sifon trubka orqali tutashtiriladi. Har bir manometrni uzish uchun unga uch yo'lli kran o'rnatiladi. Kondensatsiya baklarda bo'shatish qurilmasi bo'lishi lozim.

Yig'ish ishlari tugagach, bug' bilan isitish sistemasi gidravlik sinovdan o'tkaziladi. Qozonlar o'rnatilgandan keyin sinaladi.

Sistemaga suv to'ldirish paytida undan havoni chiqarib yuborish kerak. Bug' bilan isitish sistemasidan havo kondensat liniyalari orqali chiqarilgani, sistemaga suv

to'ldirilganda havoni truboprovodlar va asboblarning yuqori nuqtalari orqali chiqarish kerak bo'lgani uchun bu joylarda havo bo'shashtirilgan flanetsli birikmalar yoki sgonlar orqali chiqariladi. Ba`zi hollarda muaqqat havo kranlari o'rnatiladi.

Ish bosimi $0,7 \text{ kgk/sm}^2$ bo'lgan bug' bilan isitish sistemalari pastki nuqtasida $2,5 \text{ kgk/sm}^2$ li gidravlik bosimda sinaladi. Gidravlik sinovdan so'ng bug' bilan isitish sistemasining trubalaridagi birikmalarning zichligi sinalishi kerak. Buning uchun sistemaga ish bosimidagi bug' yuboriladi, so'ngra birikmalardan bug' chiqmayotganligi tekshiriladi.

3.2. Suv bilan isitish sistemalarini yig'ish.

3.2.1. Isitish loyihasi haqida tushuncha.

Isitish sistemalari maxsus loyiha bo'yicha yig'iladi. Bu loyihaga: bino qavatlarining planlari (unda qizdirish asboblari, stoyaklari va gorizontal trubalarning o'rni va o'lchamlari ko'rsatiladi);


chordoq (yuqori tarmoqli sistemada) va yerto'la planlari (bunda uzatuvchi va teskari trubalarning o'rni, trubalarning diametrлari, kengaytirish idishi va havo yig'ichning o'rni ko'rsatiladi);

isitish sxemalari-isitish sistemasining shartli belgisi (aksonometriyada): unda trubalar, qizdirish asboblari va isitish boshqa detallarining o'rni, trubalarning diametrлari va qiyaligi, qizdirish asboblaring o'lchamlari ko'rsatiladi;

qozonxona plani, qirqimi va sxemasi-unda qozonlar, nasoslar, elektr dvigatellarning tiplari va boshqa jihozlar, trubalarning o'rni va diametrлari ko'rsatiladi.

Isitish sistemasi rayon qozonxonalaridan yoki TETSlardan ta'minlanganda kiritish chizmalari va sistemalarni issiqlik tarmog'iga ulash sxemalari; kengaytirilgan idishi, havo yig'ich va boshqarish uzellarini o'rnatish sxemalari va h.k.lar beriladi. Isitish loyixasinnig planlari va sxemalari 1:100 masshtabda, qozonxona plan va sxemalari 1:50 masshtabda, detallar 1:20 va 1:10 masshtabda chiziladi.

qavatlar planlarining soni chordoq va yerto'la planlaridan tashqari, bino qavatlarining soniga bog'liq bo'ladi, chunki planlarda har qaysi qavatdagi asboblarning o'rni ko'rsatilishi kerak. Bir xil sathda bo'lgan qavatlar uchun bitta plan beriladi.



149- rasm. Bir quvurli isitish tizimi stoyagining o'lchov eskizi.

3.2.2. Truba detallarini tayyorlash.

Markaziy isitish sistemalarining trubalari detallari aslidan chizilgan o'lhash eskizlari yoki montaj chizmalaridan ko'chirilgan eskizlar bo'yicha TSZM da tayyorlandi.

Bino ichidagi isitish sitemalarining detallari quyidagi tartibda o'lchanadi; oldin stoyaklar va qizdirish asboblariga boradigan trubalar o'lchanadi. Bu ishni deraza o'rniga bog'langan va osilgan yoki osilmagan radiatorlarda qilish mumkin (radiatorlar osilgan holdagi o'lchov aniqroq natija beradi), so'ngra teskari magistrallar, undan keyin esa chordoq tarmog'i trubalari o'lchanadi. O'lhash paytida stoyaklar, magistral truba va isitish sistemasining jihozlarini hisobga olish kerak.


Stoyaklarning montaj vaziyati trubalarni o'tkazish usuliga, ya`ni ochiq yoki yashirin o'tkazilishiga bog'liq. Bundan tashqari, stoyaklarning ko'ndalang pardevorlar va devorlarga nisbatan vaziyatiga, qizdirish asboblarining o'rniga ham bog'liq bo'ladi.

Qizdirish asboblari o'rnatilgan holda stoyaklar va asboblarga ulanadigan trubalarni o'lhash ishlarini vertikal va gorizontal vaziyatlarining to'g'rilingini tekshirishdan, shuningdek, devor sirtidan asbob tiqini markazigacha bo'lgan masofani o'lhashdan boshlanadi. Shundan so'ng stoyak o'qi to'g'rilanadi. So'ngra belgilangan stoyak o'qidan qizdirish asboblarining radiator tiqinlarigacha bo'lgan masofa o'lchanadi va stoyakdagi xomut uchun teshikning markazi belgilanadi. Shundan so'ng stoyak yuqori radiator tiqinlarining o'qlari belgilanadi va undan pastda yotgan qizdirish asboblarining xuddi shunday o'qlarigacha bo'lgan masofa o'lchanadi. Barcha o'lhash natijalari oldin xomaki eskizga, so'ngra toza o'lhash blankiga tushiriladi.

So'rish shkaflari. So'rish shkaflari zararli moddalar ajralib chiqishi bilan boradigan jarayonlarni yaxshi izolyatsiyalovchi qurilmalar jumlasiga kiradi. Ajralib chiqayotgan zararli modda turi va uning havodagi miqdoriga ko'ra shkaflar yuqoridan, pastdan va aralash scho'rg'ichi bo'ladi (4.12 - rasm)

YOn tomondan so'rg'ich. YOn tomondan so'rg'ichlar ochiq sirtga ega bo'lgan rezervuarlardan ajralib chiqadigan zararli moddalarni chi`arib tashlash uchun xizmat qiladi. Ular rezervuarning bir yoki ikki tomonida joylashgan tirqishli so'rg'ichlardan iborat (4.13 - rasm).




4.11-rasm. Ishchi stolidan so'rish qalpog'i sxemasi:

1-qalpog, 2-zaberdi modda chigarruvchi manba, 3-ischchi stoli



4.12-rasm. So'rish shkaflari sxemalari:



4.13-rasm. Yon tomondan so'rish sxemasi.

4.4. Changlardan muxofaza qilish


Quyidagi changlar tozalanadi: tashqaridan uzatiladigan havo tarkibidagi chang kontsentratsiyasi

me`yordagidan ortiq bo`lsa, yoki havo tashqaridan uzatilayotgan havogsha qo'shsa (bunda xonada uzatilayotgan aralash havo tarkibidagi chang miqdori yuqori ruxsat etiladigan konsentratsiyadan(YUREK) 30%dan ortiq bo'lmasligi lozim), shuningdek ichki ishlatilgan havoni tashqariga chiqarib yuborishda.


Havoni tozalash qo'pol (zarracha o'lchamlari 100 mkm.dan ortiq changlar ushlanadi), o'rtacha (zarracha o'lchamlari 100 mkm gacha bo'lgan changlar, bunda havo tarkibidagi chang miqdori 100 mkm. dan ortiq bo'lmasligi lozim) va nozik (zarrachalari o'lchami 100 mkm. gacha bo'lgan changlar, bunda havo tarkibidagi chang miqdori 1-2 mg/m³ gacha bo'lishi lozim) bo'ladi.

Changdan tozalash qurilmalari chang tutgichlar va filtlarga bo'linadi. Chang tutgichlarga chang cho'ktirish kameralari, tsiklonlar va markazdan qo'shma kuchga asoslanib ishlovchi boshqa apparatlar kiradi.


Chang cho'ktirish kameralarida chang havo harakatlanishi yo'lida kanal



4.14-rasm. Chang cho'ktirish kamerasi: a-polli kamera, b-bitta vertikal peregordkali kamera, c-Grim-Grjimaylo konstruktivasiidan kamera. d-osma sterienli kamera. e-oddiv konstruktivasiidan kamera. f-oddiv konstruktivasiidan kamera. f-oddiv lozim), shuningdek ichki ishlatilgan havoni tashqariga chiqarib yuborishda.




4.15-rasm. a-tsiklon sxemasi, b-LIOT tsikloni sxemasi:
1-chang havo kiradigan quvur, 2-ichki tsilindr, 3-tashqi tsilindr, 4-konus,



4.17-rasm. O'zi tozalaydigan moyli filtr:
1-moy vannasi, 2-chiqaruvchi jo'mrak, 3-tutgich, 4-yuritma, 5-

kengayadi. Natijada tezlik pasayadi, havo tarkibidagi qattiq zarrachalar o'z og'irligi tufayli cho'kadi (4.14 - rasm).



4.16-rasm.Qog'ozli filtr:

1-karkas, 2-g'ovakli qog'oz, 3-

qog'oz, matov a boshq.) tozalanadi. 4.16 - rasmida qog'ozli filtr sxemasi keltirilgan.

Changdan tozalash qurilmalari nafaqat quruq, balki xo'l bo'lishi mumkin. Namlash uchun suv va moy qo'llaniladi. 4.17-rasmida o'zi tozalaydigan moyli filtr sxemasi ko'rsatilgan.

To'rsimon polotno harakatlanishida moyli vannadan o'tadi. Filtrning unumdoorligi $8000-10000 \text{ m}^3/\text{soat}$.

4.18-rasmida qo'lsimon materiallli filtr sxemasi keltirilgan. Unda chang havo quvuridan bunkerga so'rilib, undan qo'lsimonda o'tadi, uning matosidan o'tib tozalanadi.

Klapanli quti va chiqarish quvuridan toza havo yig'ma quvur orqali ventilyatorga yuboriladi.


4.5. Ventilyator

Mexanik ventilyatsiya sistema-sida past bosimli(1 kRa gacha0, o'rtacha bosimli (1-3 kRa) va yuqori bosimli (3-12kRa) ventilyator qo'llaniladi. Past va o'rtacha ventilyatorlar ventilyatsiya va havoni konditsionerlash qurilma- larida, yuqori bosimli ventilya-torlar esa texnologik qurilma-larda ishlataladi. 4.19-rasmida radial (markaziy) ventilyatorning umumiyo ko'rinishi keltirilgan.

Ishchi g'ildirak aylanganda kirish teshigi orqali havo so'rilib, undan qo'shma kuch ta'sirida chiqish tezligi orqali chiqib ketadi.


G'ildirak kuragi turli xil(oldinga qiyshaygan, radial va orqaga qiyshaygan) shaklda bo'lishi mumkin. Kuragi oldinga qiyshaygan ventilyatorda kattaroq bosim hosil bo'ladi. Lekin kuragi orqaga qiyshaygan ventilyatorning foydali ish koiffitsiyenti yuqoriroq va kamroq shovqin hosil qiladi.

Radial ventilyatorlartarmoqda qarshilik 200Ra dan yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Eng yaxshi aerodinamik xususiyatga S4-70 va S4-76 ventilyatorlariga ega.




4.18-rasm.Qo'simon
materialli filtr:


1-bunker, 2-qo'simon, 3-chiqaruvchi
quvur, 4-klapan, 5-tituvchi yuritma



4.19-rasm.Radial (markaziy) ventilyator:
1-ishchi g'ildirak, 2-kirish teshigi, 3-kojdux, 4-chiqish



4.21-rasm.06-300 oqli ventilyator:
1-kurekli g'ildirak 2-koni



4.22-rasm.S-3-04 № 4, 5, 6 g'ildirakli oqli tom
ventilyatori:

1-temmir betonli stakan, 2-himoya panjarasi, 3-kollektor,

4.21 - rasmida 06 - 300 o'qli ventilyator konstruktsiyasi keltirilgan bo'lib, u tsilindrik kojuxda joylashgan kurakli g'ildirakdan iborat. G'ildirak aylanganda havo oqimi ventilyatorning o'qi bo'yab o'tadi. O'qli ventilyatorlar odatda nisbatan kam bosimda (200 Ra gacha) qo'llaniladi.

Umumiy so'rish ventilyatsiya sistemalarida havo quvurlari bo'limganda tom ventilyator-laridan foydalilanadi (4.22-rasm)

Ventilyatorlar aerodina-mik tavsifnomalar R va L bo'yicha tanlanadi. R – ventilyator hosil qiladigan to'liq bosim, L - ventilyatorning maxsuldarligi.

Aylanish tezligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$I q P \cdot d \cdot p G' \cdot 60 \quad (4.22)$$

bu erda: d-ventilyator g'ildiragi diametri,

n-ventilyator g'ildiragining aylanish chastotasi.

Elektrovdvigatel quvvati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{LP}{3600 \cdot 1000 \cdot \eta_v \cdot \eta_{t.u}}, \quad \kappa Bm \quad (4.23)$$

Bu yerda: η_v - ventilyatorning F.I.K.; $\eta_{t.u}$ - tasmali uzatmaning F.I.K.

Belgilangan quvvat 10% ortiqcha olinadi, ya`ni. N_b q 1.1 N

5-bob. Ichki gaz ta`minoti tizimlarini yig'ushi

5.1. Gaz tarmog'ini o'tkazish

Gaz gaz taqsimlash punktlaridan chiqib, kirish trubalari orqali binoga kiradi. Turar joy binolari uchun gazoprovodlar tsokol orqali zina katagi yoki oshxonaga kiritiladigan qilib loyixalanadi. TSokoldan o'tkaziladigan truba devorining minimal qalanligi 3,5 mm li qizdirib dumalatib tayyorlangan choksiz po'lat trubalardan yig'iladi.

Tashqi gazoprovod yerdan o'tkazilganda zadvijka yer sathidan ko'pi bilan 1500 mm baland o'rnatilib, osma metall shkaf ichiga olinadi. Trubalar binoning tashqi devoridan o'tkazilib, tsokol orqali kirtilganda ham zadvijka shunday balandlikka o'rnatiladi, lekin metall shkaf qilinmaydi. Zadvijka shpindelining kallagi hovli qoplamasi sathiga chiqariladi va metall qalpoq ichiga olib qo'yiladi. Shpindelni shikastlanishdan saqlash uchun unga truba g'ilof kiydiriladi. Kiritish trubasining diametri iste'mol qilinadigan gaz miqdoriga qarab tanlanadi. Eng kichik diametr - 50mm. Trubalar tashqi magistral tomonga kamida 0,003 qiyalikda o'tkaziladi.

Gaz tarmog'i trubalari bilan vodoprovod, issiqlik tarmog'i hamda kanalizatsiya magistrallari orasidagi masofa vertikal bo'yicha kamida 0,15 m, gazoprovodlar bilan elektr va telefon kabellar orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi lozim.

Erga yotqiziladigan po'lat gazoprovodlarni korroziyadan saqlash uchun izolyatsiya qoplash kerak.

Truboprovodning ayrim uchastkalari presslab ulanadi. Gazoprovod sinalgandan so'ng payavndlab ulangan joylar bevosita transheyaning o'zida izolyatsiyalanadi.

Gazoprovodlar turar joy va jamoat binolariga kiriladigan trubalarni ko'zdan kechirish qulay bo'lgan odam yashamaydigan xonalarga (zina kataklari, oshxonalar, dahlizlarga) o'rnatish kerak. Gazoprovod boshqa kommunikatsiyalar bilan birga o'tkazilganda uni boshqa truboprovodlardan pastroq yoki ular bilan bir sathda joylashtirish, shu bilan birga barcha trubalarni ko'zdan kechirish va remont qilish qulay bo'lishi kerak.

Gazoprovod stoyaklari va ichki tarmoqlarni turar joy xonalaridan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Gaz stoyaklari ruxlanmagan po'latdan yasalgan suv-gaz trubalaridan rezba yordamida yoki payvandlab yig'iladi. Stoyaklar orayopmadan o'tadigan joylarga kattaroq diametrli truba bo'laklaridan gilzalar qo'yiladi, gilzaning pastki uchi ship sathida bo'lishi kerak. Gilza poldan 50 mm chiqib turishi lozim, aks holda polni yuvish paytida gilzaga suv kirib ketishi mumkin. Gilza bilan truba orasidagi bo'shliqqa smolalangan tolalar tiqiladi, qolgan 10 mm joyiga esa bitum qo'yiladi. G'ilofda rezbali yoki payvand birikmalar bo'lmasligi kerak.

Kvartiralarning joylashishiga qarab, gaz stoyaklari bir qavatdagি bir yoki bir necha kvartiraga gaz beradigan qilib o'rnatiladi. Kvartiraga boradigan har qaysi tarmoqqa tiqinli kran, krandan keyin sgon o'rnatiladi.

Binolarda gazoprovodlarni ochiq o'tkazish tavsiya qilinadi. Gazoprovodlarni devorda osilgan ariqlardan o'tkazib, ustiga osongina olinadigan to'siq qo'yishga yo'l qo'yiladi. Kanallarda ventilyatsiya bo'lishi lozim. Gazoprovodlar deraza, eshik o'rinalarini kesib o'tmasligi kerak. Odam o'tadigan joylarda gazoprovodlar poldan kamida 2 m baland bo'lishi kerak.

Qurilish joylari, tarmoqlar va armatura yaqiniga tayanch o'rnatish lozim. Gazoprovodlarni ventilyatsiya kanallari, shaxtalar va dudburonlar orqali o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Gazoprovodlar va elektr simlari yoki kabellarini xona ichida o'zaro joylashtirishda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

- parellel o'tkazilganda ochiq joylashgan elektr simi yoki kabeldan gazoprovod devorigacha kamida 250 mm masofa bo'lishi kerak;
- elektr simi yashirin yoki truba ichiga olib o'tkazilganda bu masofa 50 mm gacha qisqartirilishi mumkin (devordagi ariqcha yoki truba devoridan hisoblanganda);
- gazoprovod elektr simi yoki kabel bilan kesishadigan joylarda ular orasidagi masofa kamida 100 mm bo'lishi kerak;
- turar joy va jamoat binolari uchun tarmoq simlarining gazoprovod bilan zazorsiz kesishishi ko'zda tutiladi. Lekin bunda elektr simi rezini yoki ebonit truba ichiga olinigi, rezina yoki ebonit truba gazoprovodning ikki tomoniga 100 mm chiqib turishi lozim.
- gazoprovodning taqsimlash yoki kommutatsiya elektr shiti yoki shkaf devoridan uzoqligi kamida 500 mm bo'lishi kerak.
- kuchlanish 100 V gacha bo'lganda xonalar ichida gazoprovod bilan ochiq tok simlarining tokli qismlari orasidagi masofa kamida 1000 mm bo'lishi kerak.
- gazoprovod vodoprovod, kanalizatsiya va boshqa trubaprovodlar bilan kesishganda trubalar orasidagi masofa kamida 20 mm bo'lishi kerak.

Quritilgan gaz gazoprovodlarini bino ichida qiyalatmay o'tkazish mumkin.

Zarur hollarda sanoat korxonalarining tsexlaridan o'tkaziladigan taqsimlash gazoprovodlarida kondensat yig'gichlar yoki kondensat to'kiladigan shtutserlar ko'zda tutilishi lozim.

Poydevorlar, orayopmalar, zinapoya maydonchalar, shuningdek, devor va pardevorlar tutashgan joylardagi gazoprovodlar po'lat trubalardan qilingan g'iloflar ichiga o'tadigan joylarida uchma-uch tutashmalar bo'lmasligi kerak. Gazoprovod bilan g'ilof orasidagi bo'shliqqa smolalangan kanop losi tiqiladi va bitum quyiladi. G'ilofning uchi qurilish konstruktsiyalaridan 50 mm chiqib turishi lozim.

Tarmoqning ayrim uchastkalarini va gaz asboblarini ulash uchun gazoprovod liniyasiga konussimon tiqinli bronza gaz kranlari o'rnatiladi. Kirish trubalariga, stoyaklardan kvartiralarga yuboriladigan tarmoqlarga cho'yan kranlar o'rnatishga ruxsat beriladi.

Tiqinli kran korpusining yuqori qismida tiqin konusining yuqori qismiga buralgan shpilka uchun o'yiq bo'ladi. Shpilka cheklagich vazifasini o'taydi. U kran tiqinini faqat 90^0 burishga yo'l qo'yadi. Tiqinning kvadrat kallagi uchida chiziqcha bor. Agar chiziqcha truba o'qiga bo'ylama tursa, kran ochiq, agar truba o'qiga ko'ndalang kelsa, kran berk bo'ladi.


5.2. *Gaz plitalarining tuzilishi va ularni o'rnatish*

Gaz plitalarini o'rnatish uchun oshxonalarning ichki hajmiquyidagi miqdordan kam bo'lmasligi lozim:

- ikki konforkali gaz plitalarini o'rnatishda 8 m^3 ;
- uch konforkali gaz plitalarini o'rnatishda 12 m^3 ;
- to'rt konforkali gaz plitalarini o'rnatishda 15 m^3 .

Gaz plitasi o'rnatiladigan oshxonaning balandligi kamida $2,2 \text{ m}$ bo'lishi lozim, oshxonada fortochkali deraza va so'rma ventilyatsiya kanali bo'lishi shart.

Barcha gaz-gorelka qurilmalari uchun asosiy talab gazning to'liq yonishi, ya'ni yonish mahsulotlarida yonuvchan yoki zaharli gazlarning bo'lmasligi hisoblanadi. Gaz gorelka qurilmalari uchun karbonat angidrid SO miqdori hajm bo'yicha $0,02 \%$ dan



274-rasm. PG-4 gaz plitasi:

1-Dimlash shkafining eshigi, 2-plita kojuxi, 3-poddon, 4-cho'yan rama, 5-yon tokchalar, 6-olinadigan konforkalar, 7-konforka gorelkalari, 8-taqsimlash truba-ramkasi, 9-dimlash shkafi, 10-dimlash shkafining gorelkalari, 11-gorelkani

oshmasligi (agar yonish mahsulotlari dudburonga chiqib ketmasm, ya`ni gaz plitalarida) va agar yonish mahsulotlari dudburonga chiqib ketsa, ya`ni vanna kolonkalari, suv isitkich va h.k.larda 0,1 dan yuqori bo`lmasligi lozim.


PG-4, P-4/1 to`rt konforkali hamda PG-2 va P2/1-1 ikki konforkali gaz plitalari eng keng tarqalgan.

PG-4 to`rt konforkali gaz plitasining korpusi (274-rasm) yupqa list po`latdan tayyorlangan va ustiga emal qoplangan. Plitaning yuqori qismida cho`yan rama 4 bo`lib, unda cho`yan konforkalar 6 uchun teshiklar bo`ladi. Plitaning yuqori qismida gorelkalar tagida so`rish poddoni 3 bor. Ramaga yon tokchalar 5 mahkamlanadi, ular plita yuzasini kengaytiradi. Uning pastki qismida eshikcha 1 bilan berkitiladigan dimlash shkafi 9 bor.

Plitaning old qismida taqsimlash trubasi - rampa 8 bor. Undan gorelkalarga gaz keladi. Rampada rezbali beshta teshik bo`lib, ularga tiqinli kranlar buraladi: to`rttasi konforka gorelkalar 7 ga, bittasi dimlash shkafi gorelkasi 10 ga tegishli. Rampa taqsimlash shchiti bilan berkitilgan. Dimlash shkafi gorelkasini yoqish uchun tuynuk 11 bor. Dimlash shkafi gorelkasini dasta 12 bilan burish mumkin. Gaz plitasining barcha oyoqlari polda turishi lozim.

Gaz plitasi korpusining orqa devori bilan plita o`rnatiladigan xona devori orasidagi masofa kamida 75 mm bo`lishi kerak. Suvalmagan yog'och devorli oshxonalarda plitani devordan izolyatsiyalash ko`zda tutilishi lozim, ya`ni devor suvalishi, asbofaner yoki qalinligi 3 mm li asbest listi ustidan tunukaqoplanishi kerak.

Gaz plitasini o`rnatishda devor poldan boshlab izolyatsiyalanishi va plita



275-rasm. P-4G'1 va P-2G'1 -plitalarining gorelkalari:

1-havo so`rish uchun teshik. 2-arashtirach. 3-aooooacha. 4-aorelka krani.

chetlaridan har tomona 100 mm va yuqoriga kamida 800 mm chiqib turishi kerak.

Plita dimlash shkafining izolyatsiyalagan yon devoridan ichki mebelning yog'och elementlarigacha kamida 150 mm masofa bo`lishi lozim.

Dimlash shkafli ikki, uch va to`rt konforkali plitalarga gaz 20 mm diametrli trubalarda, dimlash shkafisiz ikki konforali plitalarga va taganlarga diametri 15 mm li trubalarda keltiriladi. Truboprovod plitaga burchakli va sgon yordamida ulanadi.


Tiqinli kran plitkaga gaz keladigan trubaning vertikal qismiga poldan 1100 mm baland o`rnatiladi.

P-4-1 plita gorelkasi (275-rasm) quyidagicha ishlaydi. Gorelka so`radigan havo teshik 1 orqali kiradi. Bu teshik buriladigan disk bilan berkitiladi. Gaz kran 4 korpusidagi kanal teshigi orqali kiradi va gorelka aralashtirgichi 2 da havoga

aralashadi. Gorelkaning usti qalpoqcha 3 bilan berkitilgan. Unda pastdan havo keladigan teshik bor.

276-rasmda P-4/1 plitasini o'rnatish ko'rsatilgan. Gaz stoyagi plita orqasiga va burchakka joylashtiri-lishi mumkin.

Suyuq gazli ustanovkalarda ballondan gaz plitasigacha kamida 1,5 m, isitish radiatorigacha yoki boshqa isitish asboblarigacha kamida 1 m masofa bo'lishi lozim. Ballonni qizishdan saqlaydigan ekran o'rnatib, bu masofani qisqartirish mumkin. Ekrandan ballongacha kamida 100 mm masofa bo'lishi kerak. Ballonlar devorga maxsus xomutlar yoki tasmalar bilan mahkamlanishi lozim.



276-rasm. P-4G/1 plitasini o'rnatish:


1-gaz stoyagi (I-variant), 2- gaz stoyagi (II-

5.3. Gaz suv isitkichlarining tuzilishi va ularni o'rnatish

Maishiy maqsadlarda ishlatiladigan suvni isitish uchun turli suv isitkichlar: KGI-56, AGV-80 va AGV-120 qo'llaniladi.

KGI-56 avtomatik oqava gaz suv isitkichi kvartirani issiq suv bilan ta'minlash uchun mo'njallanadi. Undan bir yoki bir necha qo'shni xonalarda joylashgan nuqtalardan suv olish mumkin. Suv isitkichning issiqlik ajratuvchanligi (har minutda) 10 l suvni 17 dan 45⁰ S gacha yoki 6 l suvni 5 dan 52⁰ s gacha isitishni ta'minlaydi.

KGI-56 isitkichi gaz gorelkasini ma'lum masofada turib boshqarishga imkon beradigan va suv kelishi tasodifan to'xtab qolgan yoki vodoprovod tarmog'idagi bosim ancha pasaygan hollarda suv isitgichni erib ketishdan saqlaydigan avtomatik qurilma bilan, shuningdek, gaz tasodifan to'xtab qolganda gaz klapanini berkitadigan urilma bilan jihozlangan. Issiq suv qolish to'xtagan hollarda gorelka o'chadi, suv olish tiklanganda esa yonib turgan pilikdan o'z-o'zidan o't oladi. Sanitariya asboblaridagi issiq suv kranlari ochilganda yoki yopilganda suv isitkich o'z-o'zidan ulanadi yoki uziladi. Suv isitkich yaxshi shamolatib turiladigan va yaxshi tortadigan dudbroni bo'lган xonaga o'rnataladi.



277-rasm. KGI-56 avtomatik oqava gaz suv isitkichi:
1-kojux, 2-o't kamerasi, 3-zmeevik, 4-radiator, 5-tyagoprerivatel, 6-gaz gorelka qurilmasi, 7-gaz bosimi rostlagichi, 8-blok-kran, 9-issiq suv trubasi, 10-oaz krani, 11-oaz trubasi, 12-sovuq suv trubasi.

Ostidan polgacha 870-1200 mm masofa qolishi kerak. Suv isitkichlar dudburonga po'lat tunukadan qilingan trubalar bilan ulanadi. Truba diametri asbobning tutun gazlarini olib ketadigan patrubogi diametridan kichik bo'lmasligi lozim. Tyagoprerivatel ustida trubalarning vertikal qismi uzunligi kamida 0,5 m, gorizontal qismi yangi uylarda ko'pi bilan 3 m va ilgari qurilgan uylarda 6 m bo'lishi lozim. Trubalar suv isitkichi tomoniga 0,01 qiyalikda o'rnatiladi.

Trubalar bir-biriga gaz yo'li yo'nalishida kamida 0,5 truba diametrigacha Kirishi va dumaloqlash radiusi kamida truba diametriga teng bo'lgan uchtadan ortiq burilishga ega bo'lmasligi kerak.

Truba uchidan 10 sm nariga devorga tiraladigan shayba o'rnatiladi.

Suv isitkichquyidagicha o'rnatiladi: o'rnatish joyi belgilab olinadi, devorga mahkamlanadigan dyubellar uchun teshiklar o'rnini belgilanadi va o'yiladi. So'ngra dyubellarni mahkamlab, ularga shuruplar buraladi, suv isitkichi osiladi, u gaz va suv trubalariga ulanadi.

AGV tipidagi avtomatik gaz suv isitkichlar issiq suv bilan ta`minlash uchun qo'llaniladigan va bir necha nuqtadan suv olishga imkon beradigan sig'imli suv isitkiglardir. Suv isitkichlarni vannaxonalarga, oshxonalarga yoki hajmi kamida 6 m^3 bo'lgan xonalarga o'rnatishga ruxsat beriladi. Ular albatta alohida gaz trubasiga ulanishi lozim.

AGV-80 suv isitkichining asosiy qismlari (278-rasm): koyux 1, suv baka 3, o'tquvur 5, eshikcha 11 li o'txona 8, pilikli gaz gorelkasi 9 va avtomatik asboblardan

KNI-56 suv isitkichi (277-rasm) kojux 1, zmeevikli o't kamerasi 2, radiator 4, tyagoprerivatel 5, blok kran 8, gaz bosimi rostlagichi 7 va gaz-gorelka qurilmasi 6 dan iborat. Suv isitkichga 25 mm diametrli truba 11 orqali kiradi. Truba kran 10 bilan ochib yopiladi. Sovuq suv 15 mm diametrli truba 12, issiq suv truba 9 orqali tushadi. Suv isitkichni yoqish uchun oldin dasta 13 bilan pilik ochiladi, u pilikdan o't oladi.

KGI-56 suv isitkichlari oshxonalarga yoki vannaxonalarga o'rnatiladi, ular yonmaydigan devorga mahkamlangan dyubellarga shupurlar buru byoki ilmoqlar yordamida mahkamlanadi. Agar suv isitkich suvalgan yog'och devorga o'rnatiladigan bo'lsa, suv isitkichning orqasiga qalinligi 3 mm asbestga qoplangan po'lat tunuka qoqiladi.

Gaz suv isitkichlari korpusi

ostidan polgacha 870-1200 mm masofa qolishi kerak.

Suv isitkichlar dudburonga po'lat tunukadan qilingan trubalar bilan ulanadi.

Truba diametri asbobning tutun


gazlarini olib ketadigan patrubogi diametridan kichik bo'lmasligi lozim.

Tyagoprerivatel ustida trubalarning vertikal qismi uzunligi kamida 0,5 m, gorizontal

qismi yangi uylarda ko'pi bilan 3 m va ilgari qurilgan uylarda 6 m bo'lishi lozim.

Trubalar suv isitkichi tomoniga 0,01 qiyalikda o'rnatiladi.

iborat. Kojux 1 qalinligi 1 mm li po'lat listdan tayyorlangan tsilindr, sirti emal bo'yoq bilan bo'yab qo'yiladi. Bak va kojux devorlari orasida issiqlik izolyatsiyasi 2-shlak-paxta qatlami bo'ladi.



278-rasm. AGV-80 avtomatik gaz suv isitkichi:

1-kojux, 2-issiqlik izolyatsiyasi, 3-suv baki, 4-sovuq suv truboprovodi, 5-o't quvir, 6-gaz oqimi uzaytirgichi, 7-to'kish shtutseri, 8-o'txona, 9-gaz gorelkasi, 10-

havo berish rostlagichi, 11-o'txona eshigi, 12-termopara, 13-temperatura rostligichining sezgir elementi, 14-plik naychasi, 15-termopara naychasi, 16-gorelka naychasi, 17-temperatura

Suv baki qalinligi 3 mm li ruxlangan po'latdan tayyorlangan ust iva osti berk tsilindr. TSilindrning yuqorisida diametri 20 mm li ikkita htutser bor. Ulardan biri sovuq suv truboprovodi 4 ni, ikkinchisi issiq suv olish truboprovodi 23 ni, ulash uchun mo'njallangan.

Suv isitkichdan suv shtutser 7 orqali to'kiladi.

Bak o'qi bo'yab diametri 80 mm li o'tquvur 5 joylashgan. YOnish kamerasidan chiqqan qaynoq gazlar shu trubadan o'tib, suvni qizdiradi. Issiqlik berishni oshirish uchu o'tquvur ichiga gaz oqimi uzaytirgichi 6 joylashgan. YUqoridan o'tquvurga tyagoprerivatel 24 kiydirilgan. Suv isitkich o'txonasi 8 da injektsion tipdagi gaz gorelkasi 9 joylashgan.

Gazoprovod 22 ga, shuningdek, gorelka va pilik oldiga tinqinli kran 21 va gaz krani 20 o'rnatilgan. Suv temperaturasini birdek saqlab turish uchun bakning o'rta qismiga temperatura rostlagichning sezgir elementi 13 o'rnatilgan. Gaz gorelkaga elektr magnit klapan 19 va temperatura rostlagichi klapani 17 orqali keladi. Klapan 19 ni ulash uchun knopka 18 ni bosish kerak.


Pilik naychasi 14 oldida termopara naychasi 15 da bimetall plastinkali termopara 12 joylashgan. U gorelkaza boradigan gazni rostlab turish uchun xizmatqiladi. Suv isitkich baki doim vodoprovod bosimi ostida turadi. Gorelka yongandan so'ng uning alangasidan chiqqan issiqlik va o'tquvur orqali o'tadigan qizigan gazlar suvni isitadi.

Bakdagagi suv zarur temperaturagacha qizigach, rostlagich sezgir elementining latun naychasi uzayadi va unga biriktirilgan rostlagich sterjenini tortadi. Richagli prujina rostlagich richagini boshqa vaziyatga o'tkazadi va rostlagich klapanni bo'shatadi. Klapan o'z

prujinasi ta'sirida berkitiladi va rostlagich orqali gorelkaga gaz o'tishi to'xtaydi, gorelka kallagidagi alanga o'chadi, lekin pilikdagi yonib turaveradi, chunki unga gaz elektr magnit klapan orqali keladi.

Bakdag'i suv ma'lum temperaturagacha pasayganda rostlagich naychasi sovib qisqaradi va uning sterjeni rostlagich richagiga ta'sir qiladi. Richagli prujina rostlagich richagini dastlabki vaziyatga buradi va rostlagich klapanini ochadi. Elektr magnit klapan va rostlagich klapani orqali gaz gorelkaga keladi va pilikdan o't oladi. Agar pilik o'chsa, termopara soviydi, zanjirdagi elektr toki yo'qoladi, elektr magnit klapan berkiladi hamda gorelka va pilikka gaz borishini to'xtatadi. Gorelka 9 ga boradigan havo miqdorini rostlash uchun havo rostlagichi 10 o'rnatilgan.

AGV-80 suv isitkichidan kvartiralarni isitishda va issiq suv Bilan ta'minlashda (279-rasm) sovuq suv truboprovodi suv isitkichga pastdagi to'kish shtutseri orqali ulanadi. Vodoprovod keladigan trubaga teskari klapan va ventil qo'yiladi hamda sistemadan suvni to'kish uchun ventilli tarmoqqa qo'yiladi. Issiq suv yuqoridagi shtutser va stoyak orqali kengaytirish idishiga yo'naladi. Undan isitish sistemasining yuqori issiq suv tarmog'i tortiladi. Issiq suv stoyagi izolyatsiyalanadi. TSirkulyatsiyalanadigan bosimni kuchaytirish uchun radiatorlarni poldan 30-35 sm baland o'rnatish tavsiya qilinadi.



279-rasm. AGV-80 gaz suv
isitkichida xonalarni isitish va issiq
suv bilan ta'minlash sxemasi:
1-dudbo'ronga boradigan truba, 2-
klapandan ketadigan saqlash liniyasi,

Teskari liniya teskari klapandan keyingi pastki to'kish shtutseriga ulanadi, kengaytirish idishidan rakhovinaga to'kish trubasi tortiladi. Issiq suv stoyagiga saqlash klapani o'rnatiladi, undan umivalnik va rakhovinaga truba tortiladi. Issiq suv sanitariya asboblariga rasmida ko'rsatilganidek beriladi. Pilikni yoqish va suv isitkichga qarab turish qulay bo'lishi uchun u taglik ustiga o'rnatiladi. Suv isitkichni yog'och pol ustiga o'rnatganda ostiga asbest kartonli po'lat list qo'yish kerak.

AGV-80 suv isitkichi 80 l suv ketadiganqilib, AGV-120 suv isitkichi esa 120 l suv ketadigan qilib ishlab chiqariladi. AGV-80 sahni $20-30 \text{ m}^2$ li xonalarni isitish uchun, AGV-120 esa sahni 100 m^2 gacha bo'lgan xonalarni issiq suv bilan ta'minlash

va isitish uchun mo’ljallanadi. Bu suv isitkichlarda diametri 38 mm li ikkita shtutser, yuqori qopqog’ida termometr uchun diametri 20 mm li shtutser bor.

Aytib o’tilgan maishiy gaz asboblaridan tashqarii, gazaviy suv qaynatkichlar, kvartirada foydalaniladigan gaz xolodilniklari, maishiy isitish pechlari uchun mo’ljallangan, avtomatik boshqariladigan gaz-gorelka qurilmalari, kolonkalarni gaz bilan isitishga o’tkazish qurilmalari, suv isitish va bo’g’ qozonlari uchun mo’ljallangan qurilmalar ham ishlatalidi.

5.4. Suyultirilgan gaz bilan ishlaydigan maishiy ustakovkalar

Maishiy asboblar gaz bilan individual va gruppaviy suyultirilgan gaz qurilmalaridan ta`minlanadi. Induvidual qurilmadan foydalanilganda suyultirilgan gaz ballonini gaz asbobi o’rnatilgan gaz ballonini gaz asbobi o’rnatilgan xonaga o’rnatish mumkin, gruppaviy qurilmalardan foydalanilganda esa ballonlar xona tashqarisiga, maxsus metall shkaf ichiga qo’yiladi. 280-rasmda oltita ballon va truboprovodlar tarmog’idan iborat bo’lgan gruppaviy qurilma ko’rsatilgan. Ballonlardagi gaz truboprovodlar tarmog’i orqali asboblarga boradi. Gruppaviy qurilmada bosim rostlagichi ham bo’ladi.

Berkitish-rostlash klapanli ballonlar uchun «Baltika-1» bosim rostlagichlari qo’llaniladi. Ular chiqishdagi gazning bosimi 300 mm suv ust. bo’lishini ta`minlaydi. Ventilli ballonlar uchun RDG-6 va RDG-8 rostlagichlari qo’llaniladi. Ular chiqishdagi gazning bosimi 200-500 mm suv ust. bo’lishini ta`minlaydi.

Suyultirilgan gaz ballonli qurilmalarni bino ichidagi yig’ishda quyidagi talablarni bajarish kerak.

Alovida turgan ballonlardan gaz asbobi, isitish asboblari va isitish pechlarigacha kamida 1 m masofa bo’lishi kerak. Ballonni himoya qiladigan ekran bo’lganda bu masofani 0,5 m gacha qisqartirish mumkin.


Bitta gaz asbobi uchun bino ichida ballon o’rnatilganda asbob oldiga berkitish qurilmasi qo’yilmaydi. Agar ballon binodan tashqariga o’rnatilsa, quyidagi shartlarni bajarish kerak: shkaf va ballonlar balandligi kamida 200 mm li mustahkam asbob ustiga qo’yiladi. Ballonlar o’rnatiladigan joyga bemalol boriladigan bo’lishi, tashqi ballon qurilmasidan ketadigan gazoprovodda kamida 0,5 m uzunlikdagi gorizontal sim bo’lishi lozim. Agar asos cho’ksa, shu qism gazoprovodi shikastlanishdan saqlaydi. qurilmaga ulanadigan har bir gaz asbobi oldiga berkituvchi kran qo’yiladi.

5.5. Isitish qozonxonalarini gazlashtirish

Isitish qozonxonalarini qattiq yoqilg’idan gaz bilan ishslashga o’tkazish uchun qozonxonaga gazoprovod o’tkazish va uni shahar tarmog’iga ulash, avtomatik boshqarish asboblari va gorelkalar o’rnatish kerak.

Gazlashtirilgan qozonxonalar qo’shni xonalardan yonmaydigan devor bilan ajratilishi yoki kvartira va boshqa xonalarga bog’liq bo’lmagan eshigi bo’lishi kerak.

Bunday qozonxonalarda sektsiyali cho’yan qozon eng keng tarqalagan. Bunday qozonni qattiq yoqilg’idan gaz bilan ishslashga o’tkazish uchun pastki eshigi olib tashlanadi va o’rniga gorelka mahkamlanadigan plita o’rnatiladi.



280-rasm. Olti ballonli gruppovoy gaz rostlash ustanovkasi:
1-ballonlar, 2-biriktirish trubkasi, 3-burchak vintellar, 4-gaz kollektori (rampa),

Gaz bilan ishlaydigan qozonlarda quyidagi avtomatika asboblari va kontrol o'lchash asboblari bo'lishi lozim: har bir qozon yoki agregatdagagi va lozim bo'lsa, gorelka oldidagi gaz bosimini o'lchaydigan asbob; gorelkalar va ventilyator havo yo'lidagi havo bosimini o'lchaydigan asbob, o'txona yoki borov shiberigacha siyraklanishni o'lchaydigan asbob.

Gaz bosimini normaldan og'ganda, asosiy gorelkalarning alangasi o'chib qolganda, dudburon yaxshi tortmaganda, shuningdek, havo majburan yuboriladigan gorelkalar bilan jihozlangan qozonlarga havo berish to'xtaganda avtomatika asboblari gaz berilishini o'z-o'zidan to'xtatadi.

5.6. Gazoprovod loyihasi va tarmoqni yig'ish

Turar joy gazoprovodi loyihasi quyidagi assosiy elementlardan iborat:
uchastka plani (181-rasm, a) 1: 200 yoki 1:500 mashtabda chiziladi; unda binolarning joylashishi, uchastka chegaralari, shahar va hovli gaz tarmoqlarining joylashishi, binoga kirish trubalarining o'rni ko'rsatiladi;

birinchi qavat plani (281-rasm, b) 1:100 yoki 1:200 masshtabda chiziladi; unda binoga kirish trubasining o'rni va diametri, ichki tarmoqning joylashishi va diametrлari, gaz asboblari yoki schyotchiklarning o'rni ko'rsatiladi;

yuqori qavat plani (281-rasm, v) xudi birinchi qavat planidagidek masshtabda chiziladi: unda ichki tarmoqlar, asboblar va schyotchiklarning o'rni ko'rsatiladi;

gazoprovod sxemalari (281-rasm, g) truboprovodlar va ularning diametri ko'rsatilgan masshtabda chiziladi.

Loyihada shartli belgilar ekspluatatsiya beriladi.

Gazoprovod tarmoqlari industrial metoda yig'iladi. Gazoprovodlar TSZM da o'lchov eskizlari yoki o'lchov-montaj kartalari (282-rasm) bo'yicha qora suv-gaz trubalaridan tayyorlanadi.

Gazoprovodlar ruxlanmagan po'lat trubalardan yig'iladi va armatura hamda jihozlarga rezba yordamida yoki payvandlab ulanadi. Stoyaklar orayopmalardan o'tadigan joylarga truba bo'laklaridan gilzalar qo'yiladi. Gilza sof pol belgisidan 50 mm va ship sirtidan 5 mm chiqib turishi kerak. Rezbali birikmalarda zichlash materiali sifatida qo'rgoshin surik zamazkani tabiiy alif moyga yoki ruxli belilarga aralashtirib tayyorlangan modda shimdirilgan zig'ir tolalari yoki «FUM» lentasi ishlatiladi.

Truba va armaturaning birikish joylarini ko'zdan kechirish uchun qulay bo'lishi kerak, shuning uchun birikmalarni qavatlararo orayopmalar, devorlar va pardevorlarga joylashtirishga ruxsat berilmaydi. Har bir qavat yoki qavat oralitib, shuningdek, magistralda ketgan har bir tarmoqdagi stoyaklar asosiga sgonlar o'rnatish lozim.

Odatda, ichki gazoprovodlar stoyak tomonga 0,003 qiyalikda ochiq o'tkazilishi lozim. Gazoprovodlar vodoprovod, kanalizatsiyasi va boshqa tarmoq bilan tutashgan joylarda truboprovodlar orasida kamida 20 mm, elektr simlari yoki kabel bilan tutashgan joylarda 100 mm masofa bo'lishi lozim.

Tarmoqning ayrim uchastkalarini va gaz asboblarini uzib qo'yish uchun gazoprovod liniyasiga tiqinli gaz kranlari o'rnatiladi. Stoyaklardan kvartiralarga ketadigan tarmoqlarga va stoyaklarga tiqinli cho'yan kranlar o'rnatishga ruxsat beriladi.

Gazoprovodlar va jihozlarni uzib qo'yish uchun quyidagi joylarga berkitish qurilmalari o'rnatish ko'zda tutiladi:


agar bita kirish trubasidan ikki va undan ortiq stoyak qilish ko'zda tutilsa va har bir ikkidan ortiq qavatdagi iste` molchilarni gaz bilan ta`minlashi lozim bo'lsa, har bir stoyakga;

schyotchiklar oldiga;

har bir gaz asbobi, isitish pechi yoki gaz bilan yoqishga o'tkaziladigan boshqa agregatlar oldiga;


pechlar yoki asboblarga boradigan tarmoqlarga.

Gaz kranlarida kran tiqinining 90° chegarasida burilishini cheklaydigan cheklagich bo'lishi, tiqinning kvadrat kallagida chiziqcha bo'lishi lozim. Chiziqcha truba o'qi yo'nalishida tursa, kran ochiq, truba o'qiga ko'ndalang tursa, kran berk bo'ladi.



281-rasm. Turar joy gazoprovod loyihasi:

Kran va zadvijkalar gorizontal liniyalarga vertikal yo'nalgan shpindellar bilan, vertikal yo'nalgan liniyalarga esa devorga 45° burchak ostida yoki devorga parallel o'rnatiladi.



282-rasm. Gazoprovod bo'yicha o'lchash-montaj kartasi:

Yig'ishdan oldin kran va zadvijkalarning germetikligini tekshirish, ularni qismlar ajratish, artish va mireral moy yoki tavot bilan moylash kerak.

Past bosimli gazoprovodlarning zadvijkalari bosimi 1 kgk/sm^2 bo'lgan suv yoki havo bilan mustahkamlikka, zatvor esa zatvorning qarama-qarshi tomoniga bo'r surkab, kerosin qo'yish yo'li bilan zichlikka sinaladi. Agar 10 min mobaynida krosin silqimasa, zadvijkalar gazoprovod liniyalariga o'rnatish uchun yaroqli hisoblanadi.

Past bosimli gazoprovodlarga o'rnatiladigan kranlar 1 kgk/sm^2 bosimli suv yoki havo bilan mustahkamlikka, kopus, zatvor va boshqa elementlar esa bosimi

2000 mm suv ust. li havo bilan zichlikka sinaladi. Kranlarni zichlikka sinash paytidazichdash sirtlari yaxshilab ishqalab moslangan bo'lishi, 5 min mobaynida bosim pasayishi, 10 mm suv ust. dan oshmasligi lozim. Normal moylangan zichlash sirtlarida bosim pasayishiga yo'l qo'yilmaydi.

Gaz asboblarini o'rnatishda quyidagi asosiy shartlar bajarilishi kerak: plita korpusining orqa devori bilan xonaning yonmaydigan devori orasidagi masofa kamida 50 mm bo'lishi lozim. Suvalgan yog'och devorli oshxonalarda bu masofa 100 mm bo'lishi kerak. Agar plita orqasidagi devorga asbestli tunuka qoplangan bo'lsa, bu masofa qisqartirilishi mumkin.

Oqova gaz suv isitgichlarini yonmaydigan materialdan qilingan devorlarga o'rnatish kerak.

Suv isitkichlar o'rnatiladigan xonalarga havo kirib turishi uchun eshikning tagiga yoki devorning pastki qismiga panjara o'rnatish ko'zda tutilish yoki eshik Bilan pol orasida tirqish qoldirilishi lozim. Havo kirdigan teshikning yuzasi kamida $0,02\text{m}^2$ bo'lishi kerak.

Yig'ilgan gazoprovod quyidagi talablarga javob berishi shart: stoyaklar vertikal o'tkazilishi, gorizontal uchastkalar esa zarur qiyalikda bo'lishi kerak;

truboprovod ilgaklar, xomutlar va h.k. bilan puxta biriktirilishi lozim;

rezbali birikmalar sinchiklab bajarilishi va ularidan zig'ir tolalar chiqib qolmasligi kerak;

yig'ilgan tarmoq va o'rnatilgan asboblarning tashqi ko'rinishi ko'rkar bo'lishi lozim.

Gazoprovodni yig'ishda ham xudi sanitariya texnikasi sistemalarini yig'ishdag'i boshqa ishlarni bajarishda riosa qilingan xavfsizlik texnikasi qoidalarini bajarish kerak.

5.7. Gazoprovodlarni sinash

Turar joy, isitish va ishlab chiqarish qozonxonalar, kommunal-xo'jalik va sanoat korxonalarida gazoprovodlarning zichligi shahar gaz xo'jaligi xizmati vakili yoki buyurtmachi ishtirokida montaj tashqiloti tomonidan sinaladi.

Sinashda o'lhash aniqligini ta`minlaydigan quyidagi asboblar qo'llaniladi: gazoprovoddagi bosim 1 kgk/sm^2 gacha bo'lganda suv, kerosin yoki simob to'ldirilgan U-simon manometrlar, bosim 1 kgk/sm^2 dan oshiq bo'lganda klassi 1,5 dan past bo'limgan prujinali manometrlar ishlataladi.


Turar joy va jamoat binolaridan hamda communal-maishiy ob`ektlardagi past bosimli gazoprovodlar 1 kgk/sm^2 bosimli havo bilan schyotchiklar va gaz asboblari o'rnatmay mustahkamlikka, 400 mm suv ust. bosimida schyotchiklar va gaz asboblarini ulab zichlikka tekshiriladi. Agar schyotchiklar bo'lmasa, gazoprovodlar 500 mm suv ustuni bosimli havo bilan zichlikka sinaladi.

Agar bosimning pasayishi 5 min mobaynida 20 mm suv ust. dan oshmasa, gazoprovod ishga yaroqli hisoblanadi. Agar bosim yo'l qo'yilgan miqdordan ortiq pasaysa, trubaga sovun emul siyasi surkash yo'li bilan gaz chiqayotgan joy aniqlanadi, so'ngra nuqsonlar tuzatiladi va gazoprovod yana sinaladi.

Gazoprovodning zichligi kamida 1 soat mobaynida sinalishi lozim. Belgilangan vaqt mobaynida bosimning pasayishi 60 mm suv ust.dan oshishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bosimi 1 kgk/sm² gacha bo'lgan o'rta bosimli gazoprovodlarning mustahkamligi 2 kgk/sm² bosimli havo bilan va zichligi 1 kgk/sm² bosimli havo bilan sinaladi. 1 soat mobaynida zichlikka sinashda bosimning pasayishi 1,5 % dan oshmasligi kerak.

Avtomatika asboblari gazoprovod bilan birga ish bosimida, lekin 50 mm suv ust. dan past bo'lмаган bosimda faqat zichlikka sinaladi.



283-rasm. Kichik gabaritli KM-70 kompressori:

1-elektr dviqatel, 2-krivopish-shatunli mexanizm, 3-porshen, 4-tsilindr, 5-filtr, 6-eqiluvchan

Kommunal-xo'jalik, sanoat korxonalari, isitish va ishlab chiqarish qozonxonalaridagi o'rta bosimli gazoprovodlar mustahkamlik va zichlikka havo bilan, yuqori (3-12 kgk/sm²) bosimli gazoprovodlar esa mustahkamlikka suv bilan va zichlikka havo bilan sinaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.P.Palgunov, V.N.Isayev «Sanitarno-texnicheskiye ustroystva i gazosnabjeniye zdaniy». M., Stroyizdat, 1989 g.
2. V.N.Isayev, V.N.Geyko «Binolarni sanitar-texnik sistemalaridan foydalanish va ularni tuzatish». T., 1990 y.
3. V.N.Bogoslovskiy, A.N.Skanavi. «Otopleniye» M., Stroyizdat, 1991 g.
4. R.Aymatov va boshqalar «Gaz ta`minoti» O'quv qo'llanma. T., Tibbiyot nashriyoti, 2003 yil, 178 bet.
5. K.V.Tixomirov. Teplotexnika, teplogazosnabjeniye i ventilyatsiya. M., Stroyizdat. 1989 g.
6. A.K.Asadullayev «Gaz ta`minoti» metodik qo'llanma TAQI. 1991 y.
7. A.A.Ionin «Gazosnabjeniye». M., Stroyizdat. 1989 g.
8. QMQ 2.04.03-97. Suvoqava. Tashqi tarmoqlar va inshootlar. T. 1997 y.
9. QMQ 2.04.02-97. Suv ta`minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar. T. 1997 y.
10. QMQ 2.04.01-98. Binolarning ichki suv quvuri va kanalizatsiya. T. 1997 y.
11. QMQ 2.04.08-96. Gaz ta`minoti. Loyixa me`yorlari. T. 1996 y.
12. QMQ 3.05.01-97. Ichki sanitariya-texnika tizimlari. T. 1997 y.
13. QMQ 2.04.05-96. Isitish, shamollatish va konditsionerlash. T. 1996 y.

Mundarija

Kirish	3
I bob. Binolarni suv bilan ta`minlash tarmoqlari va jihozlari.....	4
<i>Suv ta`minoti tizimi turlari:</i>	6
<i>Kunlik suv sarfini xisoblash.</i>	10
<i>O't o'chirish qurilmalaridan foydalanishni tashqil qilish.</i>	12
<i>Suv olish armaturalarini texnik ishlatalish</i>	13
II bob. Binolarni iflos suvlarini oqqizuvchi quvurlarni harakatga keltiruvchi tarmoqlari va jixozlarining asoslari.....	14
<i>Ichki uy kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish</i>	14
<i>Ichimlik va oqava suvlarni tozalash inshoatlarini ishlash sharoitlari va ular ishini kimyoviy texnologik nazorat qilishni tashqillash</i>	16
3-bob. Markaziy isitish tizimlarining yig'ushi	18
3.1.Bug' bilan isitish sistemalarini yig'ish.	18
3.2. Suv bilan isitish sistemalarini yig'ish.	19
3.2.1. Isitish loyihasi haqida tushuncha	19
3.2.2. Truba detallarini tayyorlash.	20
3.2.3. Qizdirish asboblarini yig'ish.....	21
3.2.4. Konvektorlarni tayyorlash.....	23
3.2.5. Qizdirish asboblarini yig'ish.....	23
3.2.6. Trubalarни yig'ish.....	26
3.2.7. Kengaytirish idishlari va havo yig'gichlarni o'rnatish	31
4-bob. Vintelyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini yig'ushi	31
4.1.Ventilyatsiya sistemalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.....	31
4.2. Tabiiy ventilyatsiyani hisoblash	33
4.3. Mahalliy so'rg'ichlar	34
4.4. Changlardan muxofaza qilish	37
4.5. Ventilyator	38
5-bob. Ichki gaz ta`minoti tizimlarini yig'ushi.....	40
5.1. Gaz tarmog'ini o'tkazish.....	40
5.2. Gaz plitalarining tuzilishi va ularni o'rnatish	42
5.3. Gaz suv isitkichlarining tuzilishi va ularni o'rnatish.....	44
5.4. Suyultirilgan gaz bilan ishlaydigan maishiy ustanovkalar	48
5.5. Isitish qozonxonalarini gazlashtirish	48
5.6. Gazoprovod loyihasi va tarmoqni yig'ish	49
5.7. Gazoprovodlarni sinash	52
Foydalilanigan adabiyotlar	54

